11. <https://www.cit.fraunhofer.de/en/research-center/iot-comms/SmartIntersection.html>

**UO`T 631.358.633.511****GORIZONTAL SHPINDELLI PAXTA TERISH MASHINASI TERISH APPARATINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID MULOHAZALAR*****Egamnazarov G`ayrat G`aybullayevich –****Jizzax holitexnika institut**Qishloq xo`jalik va oziq-ovqat texnika
texnologiyalari**kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizga horijdan olib kelinayotgan paxta terish mashinalari terish apparatlarining ancha murakkabligi, ularga xizmat ko`rsatish, ta`mirlash harajatlarining yuqoriligi to`g`risida so`z boradi. O`rganigan tahlillar va keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, sodda yuritmalı shpindelli paxta terish apparati, ya`ni vertikal shpindelli terish apparatini gorizontal shpindelli holatiga o`tkazib ishlatish mumkin bo`lgan konstruksiyani loyihalash bo`yicha fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so`zlar: g`o`za, paxta, paxta terish mashinasi, terish apparati, baraban, shpindel, konussimon tishli uzatma, podshipnik, tasmli yuritma, plastinka.

Аннотация. В данной статье рассмотрена проблема сложности, дороговизне обслуживания и ремонта хлопкоуборочных машин, привезенных в нашу страну из-за границы. На основе анализа ремонта и устранения недостатков, представлены решения в проектировании конструкции хлопкоуборочной машины с простым приводом, т. е. конструкции, которую можно использовать путем переключения вертикально-шпиндельного уборочного устройства в горизонтальное положение шпинделя.

Ключевые слова: хлопок, хлопкоуборочная машина, уборочный аппарат, барабан, шпиндель, коническая зубчатая передача, подшипник, ременная передача, пластина.

Abstract: This article describes methods, technologies and their impact on human health to reduce the amount of harmful substances emitted by vehicles in traffic jams at controlled intersections in large cities. Opinions are presented on improving the theoretical foundations of traffic management and forecasting in order to manage traffic flows in large cities, prevent traffic jams, and reduce the damage caused by vehicles to the environment. The impact of particulate matter on human health, the specific components of particulate matter and their harmful effects, which are formed as a result



of the braking of cars and the friction of their tires on the road surface, have also been studied.

Key words: road traffic, road traffic, traffic lights, safety, road traffic, number of stops, acceleration, toxic gases, harmful substances, parking.

G'oz - juda bebaho texnik ekin hisoblanadi. Paxta universal xom ashyo bo'lib, undan 300 xilgacha keng iste'mol mollari va texnikabop mahsulotlar olinadi. Bir tonna paxta xom ashyosidan 320-340 kg. tola, 560-580 kg. urug' ishlab chiqariladi. 340 kg. toladan o'z navbatida 3500 mg²g²mol, 580 kg. chigitdan esa 112 kg. yog', 10 kg. sovun, 270 kg. kunjara, 170 kg. shulxa va 8 kg. lint ishlab chiqariladi.

Paxta tozalash zavodlarida dastlabki ishlash jarayonida chigitdan paxta tolasi, ya'ni uzunligi asosan 20 mm. dan oshadigan tola, tolasining uzunligi 20 mm. dan qisqa-momiq (lint) va tolasining uzunligi 5 mm. dan kam - delint ajratiladi.

Paxta tolasi engil sanoatning to'qimachilik, trikotaj va boshqa tarmoqlarida ishlatiladi. Industriyaning oziq-ovqat, kimyo, elektrotexnika, aviatsiya, avtomobil sanoati kabi tarmoqlari ham paxta tozalash sanoati mahsulotlaridan foydalanadilar.

Dunyo miqyosida to'qimachilik tolasi ishlab chiqarishda paxta ulushiga 50 % dan ko'prog'i to'g'ri keladi. Paxtadan, asosan, ip yigiriladi, paxta va momiqning biroz qismidagina meditsina, kiyim va mebel paxtasi olinsa qolgan qismidan har xil buyumlar-prokladkalar, filtrlar va hokazolar uchun foydalaniladi.

Chigitdan presslab yoki ekstraksiya qilib paxta yog'i olinadi. Gossipol pigmenti (zaharli modda) paxta yog'ining o'ziga xos komponenti hisoblanadi. Gossipol yog'ga rang beradi va sifatini belgilaydi. Tozalanmagan paxta yog'i-qizg'ish-qo'ng'ir, ba'zan deyarli qora rangli, o'ziga xos hidli va taxir tamli suyuqlik, tozalangani-mallasimon-sariq rangli bo'ladi. Paxta yog'ining kimyoviy tarkibi va xususiyati g'ozaning naviga, shuningdek uni o'stirilgan sharoitlariga bog'liqdir.

Paxta yog'i tarkibida tirik organizm uchun hayotiy zarur tokaferol (vitamin Ye), ancha miqdorda karotin pigmenti (provitamin A), qariyib 0,5 % steriplar (provitamin D) bo'ladi. Yog' tarkibida ko'p miqdorda (40-48%) linol kislotasining bo'lishi qondan xolestirinni chiqarishga hamda aterosklerozning oldini olishga yordam beradi.

Paxta yog'i oziq-ovqat mahsuloti sifatida juda qadrlanadi. Bundan tashqari undan sovun, pishirishda, shuningdek alif, lak, emal va boshqa xil bo'yoqlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

G'oz tupidan 100 dan ortiq birikmalar olinishi mumkin. Tarkibida qariyib 20 xil organik kislotalar bo'lgan g'oz barglaridan eng qimmatli limon va olma kislotalari olsa bo'ladi. Paxta tozalash zavodlarining chiqitlaridan o'sish stimulyatori olinadi. Uning tarkibiga aminokislotalar, mikroelementlar, vitaminlar, organik kislotalar va



boshqalar kiradi. Chorvadorlar va dehqonlar ana shu o'sish stimulyatorlarini kutmoqdalar. Paxta tozalash zavodlarining chiqitlaridan plastifikator ham olish mumkin. Temir-beton buyumlari ishlab chiqarishda sinab ko'rilganda u juda yaxshi samara beradi.

Chorvachilikda yog' ishlab chiqarish sanoatining chigit shulxasi va paxta shroti kabi juda mayda to'yimli ozuqa bo'ladigan chiqitlaridan keng foydalaniladi. G'o'za shrotidan fitin va oziq-ovqat oqsili ajratiladi. Uni non yopishda unga qo'shish, boshqa oziqabop mahsulotlarni boyitish hamda buzoq boqishda undan sut o'rindoshi sifatida foydalanish mumkin.

Paxta shulxasidan gidroliz sanoatida ham keng foydalansa bo'ladi. Uning bir tonnasidan 85 litr spirt, 300 kg lignolit (qurilish plitalari), qariyb 28 kg. karbon kislota, 20 kg. sirka kislotasi va bir qator boshqa moddalar olinadi.

G'o'zapoyalar sellyuloza ishlab chiqarish uchun presslangan qog'oz va karton tayyorlash uchun xom ashyo hisoblanadi. U qurilish materiali sifatida ham diqqatga sazovordir. G'o'zapoyadan va yog'och ishlash chiqitlaridan (bog'lovchi qo'shilmalarsiz, issiq presslash usuli bilan) ligneuglevodli plastiklar ishlab chiqariladi.

Bunday plitali materiallar oddiy usulda tayyorlanishi va arzon tushishi jihatidan ajralib turadi. Ulardan qurilish ishlarida hamda mebel yasashda foydalanish mumkin. Bunday materiallar yog'och-payraxali va boshqa xil plitalarning o'rnini bosadi.

Ko'sak tozalash mashinasidan o'tkazilgan po'choqdan diabet kasalligiga chalinganlar uchun ksilit-qandsimon modda ishlab chiqariladi. Paxta tozalash sanoati chiqitlaridan juda ko'p miqdor lignin olish mumkin. Lignin tuproq unumdorligini yaxshilaydi.

1937-38 yillarda Rozenblyum tomonidan yaratilgan vertikal shpindelli paxta terish apparati paxta terish mashinasining hamma konstruktiv va texnologik imkoniyatlari ishga solib ko'rildi, endi unda biror yangilik yaratish va takomillashtirishning yo'li qolmadi. Uning asosiy kamchiligi paxtani erkin tanlab emas, siqib sidirib olishidir [3].

Natijada birinchi navli tola atigi 15-20 % tashkil etadi. Buni Respublikamizda paxta terishning ilg'or texnika va texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha paxta terish mashinalari ustida olib borilgan ishlar 1980-yilga kelib paxta tolasining 80-85 foizini uzib-uzib terishi bilan o'zini oqlay olmaganligi (jahon bozorida) ayon bo'lib qolganligi bilan izohlash mumkin.

Natijada Amerikada KEYS-2022 rusumli gorizontal shpindelli paxta terish mashinalari keltirildi. Hozirda mazkur mashina takomillash-tirilib, AQSh-O'zbekiston hamkorligida TZST CE-220 rusumidagi gorizontal shpindelli paxta terish mashinasi mamlakatimizda ishlab chiqarilmoqda. Ammo bu mashinalar ham o'z sharoitidagi



“Yagona universal texnologiya” konsepsiyasidagi paxta navi va xo‘jalik sharoiti uchungina yuqori samara berishi, bizning paxta navlarimiz va sharoitini to‘liq namoyon qila olmayotganligi mutaxassis olimlar va mexanizatorlar tomonidan keng qamrovli sinov natijalariga ko‘ra aniqlangan.

Jumladan, paxta terish apparatining ancha murakkabligi, namlagich yostiqlar, ajratgich disklarning tez-tez ishdan chiqishi, terilgan paxtaning namligi 2-foizgacha ortib ketishi, terish apparatini moylashga kerakli moylar sarfining yuqoriligi, qabul kamerasini bir smenada kamida ikki marta tozalashni talab qilishi, xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlashning murakkabligi va narxning balandligi va boshqa fikrlar bildirildi. Bundan tashqari TZST CE-220 mashinasida paxtani 90-95 foiz ochilib, g‘o‘za barglari yaxshi to‘kilgandagina yuqori samara berishi mumkinligi isbotlandi, bizning sharoitda bunga 15-20 oktabrda erishish mumkin bo‘ladi [4].

Mazkur nuqsonlarni bartaraf qilish, sodda yuritmal va sodda shpindelli paxta terish apparati, ya‘ni vertikal shpindelli terish apparatini gorizont shpindelli holatiga o‘tkazib ishlatish mumkin bo‘lgan konstruksiyani loyihalashni taqozo etadi.

Qo‘yilgan masalaga mos holda biz tomonimizdan tasmali-kolodkali yuritmal, vertikal shpindellar singari terish va ajratish zonasida ikki xil yo‘nalishda aylanadigan va natijada namlagich yostiqlariga hojat qoldirmaydigan, shpindelning tishlari esa almashib qo‘yilishi mumkinligi evaziga ta‘mirlanmasdan ishlaydigan shpindellari qiya joylashgan kesilgan konussimon barabanli paxta terish apparatlari konstruksiyasini takomillashtirish tavsiya etildi. Quyida ana shu tahlillar mohiyatiga e‘tiborni qaratamiz. TZST CE-220 paxta terish mashinasi terish apparati shpindelini kinematik va dinamik tahlillar asosida takomillashtirish.


Gorizont shpindellar kinematikasi sikloidali mexanizmlar (planetar va differensial)ga o‘xshash bo‘lib, shpindelning nuqtalari harakatlanishi davomida sikloidani ifodalaydi (chizadi) va Djeyms hamda David mexanizmlariga mansub hisoblanadi.

Qo‘yilgan muammo masalasini Amerikaning urchuqsimon gorizont shpindelini silindrsimon tishlari almashinuvchi shpindel bilan almashirilganda qanday hal qilinishini kinematik va dinamik tahlillar orqali asoslashga urinamiz.

Ma‘lumki TZST CE-220 rusumli gorizont shpindelli paxta terish mashinasi terish apparati ko‘p sonli konussimon tishli uzatma va urchuqsimon shpindellardan iborat (1-rasm) bo‘lib, uning aylanma tezligi

$$V = \frac{2\pi n}{60} r$$


formula orqali aniqlanadi [5].



1-rasm. Urchuqsimon shpindel

Hisoblash natijalariga mos holda A va B nuqtalarining aylanma tezliklari $V_A=3$ m/s va $V_B=1$ m/s ga teng bo'ladi, shpindel tubidan urchuqsimon uchiga tomon tishlarning aylanma tezliklari uch barobar kamayib boradi. Bu esa o'z navbatida bir xil ochilgan chanoqlardagi tolalarni o'rab olishning notekisligiga olib keladi. Natijada shpindelning uchki qismini ochilgan paxta o'rab ulgurmaydi va cho'zib qoldirib ketadi. Aytilganlarga mos holda urchuqsimon shpindelga paxta tolasini o'rashdagi tashqi kuch (F_t - aylanma va F_r - radial)lar ham notekis ta'sir qiladi, ya'ni shpindelning A va B nuqtalarida uch martaga farq qiladi. Natijada tishlarning yeyilishi ham shunga mos holda notekis bo'lib, uchki qismi tezda ishdan chiqadi. Mazkur shpindellarning kinematik va dinamik tahlillari shuni ko'rsatadiki, tishlarning aylanma tezligi uchiga tomon kamayib, shunga mos holda tishlarga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar hamda ulardan hosil bo'ladigan burovchi (tolani uzuvchi) momentlar ham tish uchiga tomon kamayib boradi va eguvchi moment esa ortib boradi.

Tavsiya qilinayotgan silindrsimon sterjenli tishlari almashinuvchi gorizontall shpindellar konstruksiyasi yuqoridagi barcha nuqsonlarni bartaraf qilib, ishonchli ishlashi va yuqori sifatli ochilgan paxtalarni terishni ta'minlaydi (2-rasm).




2-Rasm. Silindrsimon strejenli tishlari almashinuvchi shpindel

Bundan tashqari TZST CE-220 gorizontall shpindelli paxta terish mashinasi terish apparatida urchuqsimon shpindellarga 864 ta konussimon tishli g'ildirakli yuritma orqali harakat uzatiladi. Bu esa terish apparatining og'ir, tayyorlash bilan bog'liq konstruksiyasining o'ta murakkab bo'lishi, unga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlashning ham sermehnat bo'lishiga olib keladi.

Shuningdek paxta terish texnologik jarayonida ham muhim nuqsonlar mavjud. Buni quyidagicha izohlash o'rinli. Barchaga ma'lumki, g'ozaning yon shoxlari ma'lum burchak ostida asosiy tanaga nisbatan qiya holatda yuqoriga tomon konussimon shaklda joylashgan bo'ladi.


Bir tup g'ozadagi yon qiya shoxlari soni 10-20 tani yoki o'rtacha 15 tani tashkil etadi. Bir gektar paxta maydonida 90 ming tupgacha g'ozaga bo'lishini hisobga olganda undagi yon shoxlar taxminan 1450000 tani tashkil etadi. Natijada silindrsimon barabanli TZST CE-220 mashinasining paxta terish apparatida gorizontall joylash shpindellar bir gektar maydondagi paxtani terish paytida 1450000 marta uriladi, shox poyasi esa o'ralgan paxta tolasini qisman uzadi, shpindellar tishining ortiqcha yeyilishiga sabab bo'ladi. Mashinaning yurishida ortiqcha zo'riqish (qarshilik) ni vujudga keltiradi (3-rasm).

Aytilganlardan kelib chiqib, Amerikaning silindrsimon barabanida gorizontall joylashgan shpindelli paxta terish apparati o'rniga tuzilishi sodda, yengil va paxtani g'ozaga shoxlariga erkin oralab teradigan kesilgan konussimon barabanli, shpindellari g'ozaga shoxlari qiya joylashganligiga mos burchak ostida (qiya) joylashgan ponasiman tasmali yuritmal, yangicha tuzilgan va yangicha prinsip (sxema)da ishlaydigan paxta terish apparatini yaratishga e'tibor qaratildi.




3-Rasm. Terish apparatining g'ozaga bilan ilashish jarayoni

Quyida tavsiya qilinayotgan kesilgan konussimon barabanli, shpindellari qiya joylashgan (qiya shpindelli) paxta terish apparati sxemasi keltirilgan (4-rasm). Bu paxta terish apparati kesilgan konussimon baraban 1, uning aylanasi bo'ylab qiya joylashgan shpindellar 2, ajratkich 3 va qabul kamerasi 4 lardan iborat [6].



4-Rasm. Qiya shpindelli paxta terish apparati

Apparatning tuzilishi 4-rasmda yon tomondan kesib ko'rsatilgan. Shpindel 2 lar baraban 1 da ustki (stoyka) 5 larga ustki qismidan yuqori disk 6, pastki qismidan esa quyi disk 7 larga boltlar 8 hamda prokladka 9 lar yordamida o'rnatilgan. Apparatning yuqori tomondan ko'rinishi 5-rasmda qisman kesib ko'rsatilgan. Baraban 1 ni aylantirish yuqorigi disk 6 ga silindrsimon tishli g'ildirak 10 boltli birikmalar 11 bilan mahkamlangan. Baraban 1 qo'zg'almas vertikal o'q 12 da yuqorigi 13 va pastki 14 dumalanish podshipniklari yordamida o'rnatilgan. Barabannning o'q bo'yicha siljib ketmasligini ta'minlash uchun podshipnik 14 ning pastki qismida xomutli tayanch 15 qattiq qilib mahkamlangan, buning uchun o'q 12 da aylanasimon ortiqcha (kanavka) 16 qilingan (A-ko'rinish).




5-rasm. Qiya shpindelli paxta terish apparatining ust va yon tomondan ko'rinishi



O'q 12 ga vertikal bo'yicha ikki qator qilib o'ng 17 (paxtani terish zonasiga va chap 18 (paxtani ajratish zonasiga) prujinali po'latdan qilingan sektorsimon plastinkalar mahkamlangan. Shpindellar 2 ga harakat berish uchun roliklar 21 sektorsimon plastinkalar 17 va 18 larning har ikkala qatori ponasimon kolodkalar 19 va 20 lar bilan ta'minlangan, shuningdek shpindellar 2 ning terish zonasida barabanga nisbatan teskari tomonga aylanishi uchun ponasimon kolodka 19 lar o'ng tomondagi sektorsimon plastinkalar 17 ning pastki sirtiga ajratish zonasida esa shpindel 2 ning teskari tomonga aylanib tolani yechib olishi uchun ponasimon kolodka 20 lar chap tomondagi sektorsimon plastinka 18 larning yuqorigi sirtiga o'rnatilgan. Sektorsimon plastinka 17 va 18 lar konstruksiyasining ishonchli va mustahkam bo'lishini ta'minlash uchun mos holda yuqoridan 22 va pastki qismidan 23 uchburchak tayanchlar bilan biriktirilgan (ta'minlangan).

Tavsiya qilinayotgan gorizontali shpindelli tasmali yuritmal paxta terish apparati quyidagicha ishlaydi:

Paxtasi teriladigan dala bo'ylab mashina harakatlanganida terilayotgan qatordagi g'o'za shoxlarini shox yo'naltirgich moslamalari apparatning terish (ishchi) zonasiga yo'naltiradi, bu paytda shpindelning harakatlantiruvchi roliklari 21 o'ng tomonda joylashgan sektorsimon plastinka 17 ning tagida o'rnatilgan ponasimon kolodkalar 19 orqali o'tib, barabanning aylanishiga qarama-qarshi yo'nalishda aylanadi va tishlari bilan chanoqlardagi ochilgan paxtalarni o'zining sirtiga o'rab oladi. Shundan keyin baraban 1 paxta o'ralgan shpindel 2 larni ishchi (terish) zonasidan cho'tkali ajratkich – 3 larga olib keladi. Bu jarayonda shpindel 1 lar chap tomonidagi sektorsimon plastinkalar 18 ning ustki sirtida o'rnatilgan ponasimon tasmali kolodka 20 lardan o'tib, o'zining aylanma harakati yo'nalishini teskari tomonga o'zgartiradi, shunda shpindel 1 tishlari orqali yechilgan paxta tolalari ajratkich 3 lar orqali osongina ajratib olib, (TZST CE-220 lardagidek hech bir ho'llamasdan) qabul kamerasi 4 ga uzatib beradi. U yerdan paxtalar havo haydagich quvurlar va ventilatorlar orqali mashina bunkeriga uzatiladi. Quyida bir juft barabanning texnologik ish sxemasi keltirilgan (6-rasm).



6-rasm. Bir juft barabanning texnologik ish sxemasi



Oldin soʻz yuritilgan shpindelning urchuqsimon va silindrsimon konstruksiyasiga oid kinematik va dinamik tahlillarga koʻra hamda paxta terish apparatiga oʻrnatilgan ponasimon tasmali kolodkali yuritmal silindrsimon shpindellar konstruksiyasi ham baʼzi takomillashtirish-larni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «**Oʻzbekiston – 2030» strategiyasi toʻgʻrisidagi** PF-158-sonli Farmoni. Toshkent sh., 2023 yil 11 sentabr.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilikda urugʻchilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-395-qarori. 15.12.2023 y.
3. D.M.Shpolyanskiy. Paxta terishni kompleks mexanizatsiyalashtirish. “Oʻqituvchi nashriyoti. Toshkent-1979 y.
4. TZST CE-220 paxta terish mashinasi spravochnigi.
5. Г.М.Ицкович. Сборник задач и примеров расчета по курсу детали машин. “Машиностроение” 1974 й.
6. X.Togʻaev, G` .Egamnazarov va boshqalar. Paxta terish apparati. Patent № IAP 07127, 2022 y 31.10.
7. M.Shoumarova, T.Abdullaev “Qishloq xoʻjalik mashinalari” Toshkent-“Mehnat”. 2019 y.
8. <http://www.promzona.uz/catalog/kombayny/khlopkouborochnaya-mashina-TZST-CE-220/>.

JizPI



GUMANITAR –IJTIMOIY FANLAR

O'QUV MASHG'ULOTLARDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Hamidov Jalil Abdurasulovich

Jizzax politexnika instituti pedagogika fanlari
doktori professor

Komilova Nodira Abdurahmon qizi

Islom Karimov nomidagi ToshDTU Olmaliq filiali
katta o'qituvchisi

Annotsiya: Bugungi kunda asosiy pedagogik muammolardan biri – bu talabalarni amaliy masalalarni yechish uchun zamonaviy o'quv didaktik vositalarini ijodiy qo'llashga tayyorlashdir. Bunday tayyorgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi amaliy masalalarni tanlash bo'lib, u shu bilan izohlanadiki, tanlangan amaliy masala talabaga o'zlashtirilgan bilimlarning turli xil komponentlarini yaxlit manzaraga birlashtirish va ularni amaliy-tatbiqiy tavsifda aks ettirish imkonini berib, nazariy bilim va zamonaviy o'quv didaktik vositalardan mustaqil foydalanish o'rtasidagi oraliq bo'g'in sifatida ishtirok etadi.

Kalit so'zlar: nazariy bilim, didaktik vositalar, kasbiy faoliyat, bilimlar tizimi, motivatsiya, , kasbiy qiziqish

Аннотация: Одной из основных педагогических проблем на сегодняшний день является подготовка учащихся к творческому использованию современных учебно-дидактических средств для решения практических задач. Основным средством формирования такой подготовки является подбор практических задач, что объясняется тем, что выбранная практическая задача позволяет студенту объединить различные компоненты полученных знаний в целостную картину и отразить их в практико-прикладном описании, теоретическом знании современной учебной дидактики. участвует как промежуточное звено между самостоятельным использованием средств. Узбекский

Ключевые слова: теоретические знания, дидактические профессиональная деятельность, система знаний, мотивация, профессиональный интерес.

Annotation: one of the main pedagogical problems today is the preparation of students for the creative application of modern educational didactic tools for solving practical issues. The main tool for the formation of such preparation is the choice of practical issues, which is explained by the fact that the selected practical issue is



involved as an intermediate link between theoretical knowledge and independent use of modern educational didactic tools, allowing the student to combine various components of acquired knowledge into a holistic picture and reflect them in a practical-applied description.

Keywords: theoretical knowledge, didactic tools, professional activity, knowledge system, motivation,, professional interest

Bugungi kunga kelib uzluksiz ta'lim tizimida va jamiyatda pedagogik kasbi eng nufuzli, sharaflil kasbga aylanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonga tajribali va istedodli pedagoglarni jalb qilishni taqozo etadi. Ushbu dolzarb muammoni hal etishda, yani davlat ta'lim standartlari talablari darajasidagi kadrlarni tayyorlash ishlari pedagoglar tomonidan faqatgina zamonaviy o'qitish texnologiya va didaktik hamda vizual vositalarni qo'llab didaktik jarayonni tashkil etish va obyektiv boshqarish orqali ijobiy amalga oshirilishi mumkin. Mashg'ulotlarni didaktik vositalardan foydalanib o'tkazish o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi. Shuning uchun didaktik vositalardan umumiy o'rta maktablarda darslarida, professional ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida esa ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni tayyorlash va o'tkazish nazarda tutilgan. Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalar dastlab kasbiy fanlarni o'rganadilar. Quyi kurslarda esa u hali metodik fanlar bilan tanish emas va kasbiy faoliyati haqida ham yuzaki tasavvurga ega bo'ladi. Yuqori kurslarda talabalar kasbiy faoliyat elementlarini bevosita egallashga o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlarida, kasbiy fanlar va maxsus fanlarni o'rganishda, pedagogik amaliyotda, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda jalb etiladi. Zamonaviy o'quv-moddiy bazani yaratish talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Amaliy masala aniq vaziyatda zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanishni e'tiborga olib, kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga imkon beradi, shuning uchun ham talabalar tomonidan amaliy masalalar va topshiriqlar tizimini bajarishni kasbiy faoliyatda zamonaviy o'quv didaktik vositalarni qo'llashga tayyorlikni shakllantirishning didaktik vositalaridan biri sifatida qarash mumkin.

Biz o'z tadqiqotimizda amaliy masalalarni tasniflashga I.Y. Lerner, V.A. Slavenin va boshqalarning ishlarida keltirilgan maqsadlar taksonomiyasiga asoslanuvchi yondashuvdan foydalandik. Qo'yilgan maqsad iyerarxiyasiga erishish uchun har bir elementning o'rni va tarkibi qat'iy aniqlangan va zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanish e'tiborga olingan holda kasbiy faoliyat tuzilmasini aks ettiradigan subordinar masalalar tizimi zarur.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda bunday tizimni inson tafakkuri rivojining uchta darajasiga mos keluvchi quyidagi uchta tasnifdan biri asosida qurish mumkinligi asoslangan:



1) quyi daraja: bilimlar tizimi - masalalar tizimi (I.Y. Lerner, N.M. Yakosheyeva va boshqalar

2) yuqori daraja: bilish faoliyati metodlari masalalar tizimi (I.Y. Lerner va boshqalar);

3) eng yuqori daraja: shaxsning intellektual-ijodiy masalalar tizimi (V.A. Andreyev)

Bu tasniflarning har biri alohida masalalarni hal etadi, ammo ularning hech biri alohida holda bilim, ko'nikma va shaxs sifatlarini butunlay qamrab ololmaydi.

Tasniflashning ikkinchi darajasining asosi bo'lib, birinchi darajasini, ya'ni bilimlar tizimini o'z ichiga qamrab olishi hisoblanadi. Chunki mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan

bilim va ko'nikma o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq. Boshqacha aytganda, bilim ko'nikmadan tashqarida mavjud bo'lmaydi, ko'nikma esa bilimlarga tayanmasdan

o'zlashtirilmaydi, amalda qo'llanilmaydi. Demak, ikkinchi va uchinchi darajalarni

birlashtirib, zamonaviy o'quv didaktik vositalarga oid bilimlarning o'zaro aloqadorligini, ularni kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini va ushbu faoliyatga mos shaxsiy sifatlarni ta'minlovchi masalalar tasnifini tuzish mumkin.

Axborot ko'lami kengayotgan hozirgi davrda bilimlarni tizimlashtirish va undan tezkor holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda kasbiy faoliyatda foydalanishga mo'ljallangan bilimlarni "siqilgan" va ixcham tarzda qulay ko'rinishda tavsiflashning quyidagi modellari alohida ahamiyatga ega: mantiqiy model, freymli model va semantik tarmoq modeli.

Texnika yo'nalishini bitirgan muhandisning ish amaliyotini o'rganish asosida, biz oliygohda o'qish jarayonida zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanib egallangan bilim va ko'nikmalar tizimidan kasbiy masalalarni yechishda

foydalanishmaydi, degan xulosaga keldik. AKT sohasida yetarli tayyorgarlikga ega bo'lgan pedagogning faoliyati esa reproduktiv xarakterga ega. Buning sababini tahlil

etish esa, ta'lim muassasasi o'qituvchisining ta'limiy faoliyatda zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanish bo'yicha to'plangan tajribalari tez-tez talab etilmaydi,

chunki ko'pgina bitiruvchilarda uni doimiy o'rganish va amaliyotda qo'llash motivatsiyasi shakllanmagan, degan xulosaga olib keldi.

Biz tashkil etgan o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning o'quv faoliyatida zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanishga oid bilim va ko'nikmalarni egallashda pozitiv ichki motivatsiya uyg'otishga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, bilishga motivatsiyani ijodkorlikning o'ziga xos motivatsiyasi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham, uni shakllantirish bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchisining o'quv-bilish, ilmiy-tadqiqotchilik kasbiy-pedagogik faoliyatida ijodiy faolligini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shunday qilib, muhim va asosiy masalalardan biri – bu talabalar



faoliyatining barcha yo'nalishlariga ta'sir etadigan bilish motivlarini aniqlash va rivojlantirish hisoblanadi.

Talabalarning bilish motivlarini pedagogik tashxislash uchun biz zamonaviy o'quv didaktik vositalaridan foydalandik. Bunday yondashuv talabada ko'p uchraydigan bilish faoliyati haqidagi to'la axborotni taqdim etadi, bilish ehtiyojiga u yoki bu ta'sir usullarini va motivlarni asosli tanlashga keng imkoniyat beradi.

Kasbni yuqorida darajada egallashga motivatsiya esa o'z ichiga zamonaviy o'quv didaktik vositalar sohasidagi zamonaviy yutuqlardan foydalanishga tayyorgarlik, mustahkam kasbiy bilim va amaliy ko'nikmani egallash, bilishga qiziqish, zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanib kasbiy faoliyatga tayyorlanishga intilish kabi ichki omillarni qamrab oladi.

Bizning tadqiqotimiz natijalari talaba qanchalik qobiliyatli va iqtidorli bo'lmasin, u hohish va motivlashgan o'qitishsiz muvaffaqiyatga erisha olmasligini ko'rsatdi. Shunday qilib, talabalarning faolligi, shuningdek, o'quv materiallarini o'zlashtirishi uning motivatsiyasiga ko'p jihatdan bog'liq ekan.

Biz o'z tadqiqotimiz jarayonida bilim va ko'nikmalar tizimini motivlashgan holda egallashning quyidagi qoidalarga tayandik:

kasbni egallashga, shu jumladan, zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanishga tayyorgarlikni yuqori darajada o'zlashtirish; fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish, o'quv faoliyati jarayonida zamonaviy o'quv didaktik vositalarni qo'llashga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash;


talabalarni kasbiy faoliyatida zamonaviy o'quv didaktik vositalarni qo'llashga yuqori darajada tayyorlash, ularning shaxsiy raqobotbardoshligini oshirish.

Shunday qilib, motiv texnika yo'nalishi talabalarining faoliyatga undovchi omil hisoblanadi. Qiziqish bu o'quv faniga emotsional munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabaning bilim sohasiga yo'naltirganligini bildiradi. Kasbiy motiv va qiziqishlar talabalarini o'zining kasbiy faoliyatiga mos bilim va ta'minlaydi. Tadqiqot jarayonida biz motivatsiyani tashxislash kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyotli shakllantirishning asosi hisoblanadi, degan xulosaga keldik. Tashxislash o'z ichiga quyidagi o'lchovlarni qamrab oladi: o'qish maqsadini shakllantirishdagi o'zgarish, talabalarda turli xil o'quv faoliyatiga munosabatlarning shakllanganligi, o'qishning mazmun-ma'nosini kuchaytirish, kasbiy qiziqish, motiv va ehtiyojni shakllantirish. Bizning nuqtai nazarimizcha, talabaning motivatsiya darajasini tashxislashga yo'naltirilgan turli kompyuterli testlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biz kasbiy fanlarni umumiylikdan xususiylikka tamoyili asosida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu maqsadda ichki aloqalarni o'rganish va

aniqlash uchun zarur va yetarli axborotni ajratish maqsadida o'quv materialini mazmunini tuzilmalashtirishda V.P. Bespalko va D.V. Chernishevskiy tomonidan taklif etilgan usuldan foydalanish mumkin.

Kasbiy tayyorlashning metodik tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: o'qitish maqsadi va natija, tayyorgarlik mazmuni, o'qitish jarayoni, ta'lim jarayoni komponentlari, pedagogik shartlar.

graflar V.P. Bespalko o'quv materialini o'zaro mantiqiy bog'langan ko'rinishidagi sxemalar yordamida tuzilmalashtirishni taklif etgan. N.S. Purisheva tomonidan taklif etilgan o'quv predmetining didaktik modelini va L.Y. Bordonskaya tomonidan taklif etilgan o'quv materialini mazmunini aniqlashga ilmiy yondashuvlarni tahlil etish asosida talabalarni kasbiy tayyorlashning metodik tizimini ishlab chiqdildi (1-rasm)



1-rasm. Kasbiy tayyorlashning metodik tizimi

O'quv kursi mazmunini tuzilmalashtirishda quyidagi psixologik- pedagogik qonuniyatlar e'tiborga olinadi: katta hajmdagi o'quv materialini qiyin eslanadi; aniq tizimda ixcham joylashgan material oson qabul qilinadi; o'rganilayotgan materialda



o'rganish obyektining har tomonlama xarakteristikasi uchun zarur bo'lgan mazmuniy asoslar (ilmiy dalillar, tushunchalar, qonunlar, nazariya, nazariy bilimlarning amaliy tatbiqi)ni ajratish uni samarali eslashga imkon beradi.

An'anaviy o'quv adabiyotlarida materialni muayyan mantiqiy ketma- ketlikda o'rganish ko'zda tutiladi. Ularda mazmunni ochib berishning chiziqli tuzilmasi o'z aksini topgan. Ammo o'quv materialini bayon etishning chiziqli tuzilmasi boshqa modulli tuzilmaga nisbatan ko'p vaqtni talab etadi.

O'quv materialini mazmunini tavsiflovchi tuzilmaviy sxemalar bilim elementlarini, ya'ni tushuncha, ta'rif, qonunlar, tadqiq qilish va hisoblash metodlari, ularning o'zaro aloqasi va boshqalarni ko'rgazmali taqdim etish imkoniyatini beradi.

Talabalarning o'qitish jarayonidagi faoliyati, eng avvalo, ularda quyidagi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi: umumlashgan namunaviy masalalarni yechish ko'nikmasi, mantiqiy usullarni qo'llash ko'nikmasi, o'quv eksperimentlarini qo'yish, ijodiy loyihalarni tayyorlash, referatlar tayyorlash ko'nikmalari. Kasbiy tayyorgarlik sifati ta'lim maqsadi va kasbiy faoliyatga tayyorlashda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyaga bevosita bog'liq. Kasbiy tayyorgarlikning muayyan darajasiga erishish uchun mustaqil o'quv-bilish faoliyatini kengaytirishga imkon beruvchi egiluvchan modulli texnologiyaga asoslangan o'qitish usuli katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. ped. fan. dokt. Diss. Toshkent. 2017. - 337 b.

Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning modulli uslubi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini shakllantirish va takomillashtirish muammolari" // Respublika ilmiy-amaliy konfe-rensiyasi.- T.: 2001, 123-127 betlar

Hamidov J.A. Kasb ta'limi mutaxassislarini tayyorlashga izchil yondashuvni darsliklarda ifodalaniishi. "Uzluksiz ta'lim jarayonini o'quv-metodik majmualar bilan ta'min-lash muammolari" // Respublika il-miy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: 2001, 287-291 betlar

Hamidov J.A., Usanov M.M., Adilov B.B. Oliy ta'limda bulutli texnologiyalar // Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatiga innovatsion yondashuvlar xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferentsiyalar to'plami. Namangan 05. 10. 2020. 110-115 betlar.


5. Hamidov J.A., Usanov.M.M. Oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalarga asoslangan axborot ta'lim muhitining imkoniyatlari // Professional ta'lim tizimida islohotlar, malaka oshirish ta'lim turida innovatsion g'oyalar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv



hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti,
Toshkent-noyabr-2020 y. 335-338 betlar.

Ƙomilova N.A., Talabalarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalar
tahlili va uni takomillashtirishning nazariy asoslari // O‘zbekiston milliy universiteti
xabarlari jurnali, 2022, 100-104 betlar

Ƙomilova N.A., Methodik zur Vorbereitung auf berufliche Tätigkeiten auf der
Grundlage moderner didaktischer Lehrmittel // Berlin Studies Transnational Journal of
Science and Humanities jurnali 980-984 betlar



JizPI



QURILISHNI TASHKIL ETISHDAGI YANGI USULIGA O'TISHGA DOIR MASALALAR

Berdikulov A'zam Mardonovich-. JizPI
"Qurilish muhandisligi" kafedrası
dotsenti. azzamberdikulov@mail.ru.

Siddiqov Mo'minjon Yunusovich -
JizPI "Iqtisodiyot va menejment"
kafedrası dotsenti. E-mail: Siddikov
mumin@mailru.

Annotation: Ushbu maqolada qurilish-smeta hujjatlarini tayyorlashning yangi usuliga o'tishga doir masalalar, shuningdek, ularni qabul qilishda "Qurilishda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashning yangi usuliga o'tish" borasida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: buyurtmachi, pudratchi, loyiha-smeta hujjatlari, resurs usuli, hajm usuli, iqtisodiy va texnologik mezonlar, shartnomalarni raqamlashtirish, electron hisob-faktura, shaffof qurilish, korporativ standartlar, narxlar, shartnomalar, ekspertiza, loyihani boshqarish, tashish, saqlash, tender savdosi, mehnat xarajatlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с переходом на новый метод подготовки проектно-сметной документации в сфере строительства, а также «Переход на новый метод подготовки проектно-сметной документации в строительстве» при их принятии.

Ключевые слова: заказчик, подрядчик, проектно-сметная документация, ресурсный метод, объемный метод, экономико-технологические критерии, оцифровка договоров, электронный счет-фактура, прозрачное строительство, корпоративные стандарты, цены, договоры, экспертиза, управление проектом, транспортировка, хранение, тендер. продажи, затраты на рабочую силу.

Annotation: This article discusses issues related to the transition to a new method of preparation of construction-estimate documents in the field of construction, as well as "Transition to a new method of preparation of project-estimate documents in construction" in their adoption.

Key words: orderer, contractor, project-estimate documents, resource method, volume method, economic and technological criteria, digitization of contracts, electronic invoice, transparent construction, corporate standards, prices, contracts, expertise, project management, transportation, storage, tender sales, labor costs.



Davlatimiz rahbari ishtirokida bo'lib o'tgan 2024 yil 29 yanvardagi yig'ilishda "Qurilishda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashning yangi usuliga o'tilishi" borasida so'z yuritib qo'yidagilarga to'htalib o'tdilar: ³

"Eng avvalo, kelgusi yil 1 yanvardan barcha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, ishlarni amalga oshirish, shuningdek, ularni qabul qilishda «resurs usuli»dan voz kechilib, «hajm usuli»ga o'tiladi.

Bu tartib 1 iyuldan yo'l, ichimlik suvi va ko'prik qurilishi loyihalarida joriy qilinishi belgilandi.

Shuningdek, qurilishni korruptsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida 1 iyuldan:

- qurilishda tuziladigan barcha shartnomalar raqamlashtiriladi;
- pudratchi tashkilotlar bajaragan qurilish ishlari faqat soliq organiga taqdim

etilgan elektron hisob-fakturadan kelib chiqib moliyalashtiriladi;

- ob'ektni foydalanishga qabul qilish jarayoni raqamlashtirilib, dalolatnomalar «Shaffof qurilish» orqali tasdiqlanadi;

10 milliard so'mdan ortiq loyihalar bo'yicha subpudratchilarni faqat va

faqat «Shaffof qurilish» tizimi orqali tanlash tartibi yo'lga qo'yiladi. Ushbu tartib

xalqaro moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarga ham tatbiq etiladi;

- ishlab chiqaruvchi ham, quruvchi ham, nazorat qiluvchi ham qaerda qaysi qurilish materiali qancha pul turishini onlayn kuzatib boradigan tizim bo'ladi. "

Bugungi kundagi mavjud hisob-kitoblar (qurilish me'eri xujjatlari normativlar)

to'plamlari sobiq Ittifoq davrining o'tgan asrning 50-yillari oxiri - 60-yillarning boshlarida ishlab chiqilgan. Ular ko'pchilik zamonaviy ish turlari, qurilish texnikasi va

yangi texnologiyalardan foydalanish xarajatlarining real hisob-kitoblarini taqdim

etmaydi. Natijada, smeta yig'implari bilan belgilanadigan qurilish ishlarining qiymati

real tannarx bilan deyarli o'xshash emas, chunki haqiqiy mehnat xarajatlari,

mutaxassislar darajasi va mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlari amalda

standartdan sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Ob'ektiv narxlash mexanizmlarining yo'qligi sababli ko'p xarajatlar mulk

qiymatining markazlashtirilgan belgilangan foizlari bilan belgilanadi. Bunday

xarajatlarga loyihalash ishlari, ekspertiza, loyihani boshqarish, tashish, saqlash, tender

savdosi, mehnat xarajatlari, asbob-uskunalarni ishlatish, materiallar sarfi va boshqalar

kiradi. Shu sababli, har bir kishi loyiha narxini oshirishdan manfaatdor, chunki ularning

daromadlari hajmi bunga bog'liq.

³ Prezident Sh.M.Mirziyoevning ishtirokidagi "Qurilishda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashning yangi usuliga o'tiladi" mavzusidagi yig'ilishdan.



Qurilishning iqtisodiy va texnologik mezonlarini aniqlashning amaldagi tartibidan kelib chiqqan holda, loyihani loyihalash, smeta qiymati va boshlang'ich narxini aniqlash buyurtmachi tomonidan loyiha tashkiloti bilan birgalikda amalga oshiriladi. Pudratchi bu jarayonlarda ishtirok etmaydi. Uning vazifasi taklifni taqdim etish va g'olib bo'lgan taqdirda qurilish-montaj ishlarini buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishchi hujjatlarga qat'iy muvofiq bajarishdan iborat.

Qurilish mahsulotlariga narxlarni "yuqoridan pastga" belgilash (yagona tartibga solish va narx siyosatiga asoslangan taxminiy narx modeli) pudratchilarni tashabbuskorlikdan butunlay mahrum qiladi va qurilishning ilg'or usullari, innovatsion texnologiyalari va ilg'or qurilish materiallarini joriy etishga, dizaynni optimallashtirishga yo'l qo'ymaydi. Eng muhimi, shu sabablarga ko'ra O'zbekistonlik pudratchilar xalqaro pudrat bozorida to'liq ishtirok eta olmaydi va o'z xizmatlarini eksport qila olmaydi.

Chet elda korporativ standartlar va narxlar kontrakt bozoridagi raqobatning doimiy bosimi ostida. Pudratchi doimiy ravishda birlik xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'llarini izlashga majbur:

- qoidalar va qoidalarni doimiy ravishda takomillashtirish;
- faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni qayta tayorlashni yo'lga qo'ish ;
- yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish;
- texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini

oshirish;

- yuqori unumli qurilish texnikasidan foydalanish;
- innovatsiyalarni, yuqori sifatli zamonaviy qurilish materiallari va mahsulotlarini

qo'llash;

- ish tannarxini pasaytirishning boshqa usullaridan foydalangan holda samarali dizayn echimlarini erkin tanlash.

Bularning barchasi bizning pudratchilarimiz tomonidan rag'batlantirilmagan, shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish biznikidan 5-8 baravar yuqori bo'lsa ajab emas.

Mavjud qoidalarning samarasizligini E16-4-2-1 standarti misolida aniq ko'rsatish mumkin. Unga ko'ra, diametri 20 mm bo'lgan 100 chizikli metrli plastmassa quvurlarni yotqizish uchun 24 ish kunidan ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Aslida, asbob-uskunalar darajasiga qarab, bitta mexanik bu ishni 0,5-2 smenada bajarishi mumkin.

Ushbu ma'lumotlar qurilish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini ko'rsatadi. Qolaversa, hatto 5 foizlik pasayish ham yuzlab milliard so'mlik samara berishi mumkin.

Shuning uchun bizda ham qurilish loyiha smeta hujjatlarini xorid tajribasidan foydalanishni taklif qilamiz. Misol uchun Koreys texnologiyasi buyicha resurs smeta



asosida smeta qilinadi. Buning afzallik tomoni smeta hujjatlarining bajarilishi va o'qilish osonligi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prezident Sh.M.Mirziyoevning ishtirokidagi “Qurilishda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashning yangi usuliga o'tiladi” mavzusidagi yig'ilishdan. <https://www.xabar.uz>. Mahalliy qurilishda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashning yangi usuliga o'tiladi.
2. Ганиев.К.Б., Сиддиқов М. Управление трудовыми процессами в подразделениях организации как фактор успеха в бизнесе. Международная конференция “Бизнес и образование вектор развития”. -Алматы, 2005, 21-22 апреля, с. 260-267.
3. Ганиев.К.Б., Сиддиқов М. Рынок сенных бумаг. Ташкент, Консаудитинформ, 2001.
4. Сиддиқов М. Проблемы разработки процесса организации строительного производства. Экономика и социум» электронное периодическое издание №2 (105) 2023.
5. Сиддиқов М., Бердиқулов А. Стимулирование как важнейший фактор повышения производительности труда. // Таълим фан ва ишлаб чиқариш технологияларни қўллаш-мамлакат тараққиётининг муҳим омили. Республика илмий – техник анжумани тўплами - Самарқанд. 2018. – Б. 187-189.
6. Siddiqov, M. (2023). IN THE GHAZALS OF FUZULI AND SOUFI OLLOYOR ONE AFFINITY. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(09), 126-132.

JizPI



UDK: 378:42.371.3

THE TERMINOLOGY OF CONSTRUCTION AT TECHNICAL UNIVERSITIES AND ITS TEACHING METHODOLOGY

Bazarov Bunyod Tulkinjonovich
Docent of Uzbek and foreign languages
department,
Jizzakh polytechnic institute,
Tel: +99894 574 82 00

Abstract In this article the terminology of construction at technical universities has been analyzed and some effective and efficient methods to teach them have also been discussed. The most important difference lies in the learners and their purposes for learning English. English for specific purposes students are usually adults who already have some acquaintance with English and are learning the language in order to communicate a set of professional skills and to perform particular job-related functions.

Keywords: Specialist, Communication, Professional Sphere, Construction, Terminology, Activity, Foreign Languages, Foreign Culture.

Annotation Ushbu maqolada texnik oliy o'quv yurtlarida terminologiyasi tahlil qilingan va ularni o'rgatishning samarali va samarali usullari ham muhokama qilingan. Eng muhim farq o'quvchilar va ularning ingliz tilini o'rganish maqsadlaridadir. Muayyan maqsadlar uchun ingliz tili talabalar odatda ingliz tili bilan biroz tanish bo'lgan va kasbiy ko'nikmalar to'plamini muloqot qilish va ish bilan bog'liq muayyan funktsiyalarni bajarish uchun tilni o'rganayotgan kattalardir.

Калит со'злар: Mutaxassis, Aloqa, Kasbiy soha, Qurilish, Terminologiya, Faoliyat, Chet tillari, Xorijiy madaniyat.

Аннотация В этой статье была проанализирована терминология в технических университетах, а также обсуждены некоторые эффективные и действенные методы их преподавания. Самое важное различие заключается в учащих и целях их изучения английского языка. Студенты, изучающие английский для конкретных целей, обычно – это взрослые люди, которые уже немного знакомы с английским языком и изучают язык, чтобы передать набор профессиональных навыков и выполнять определенные функции, связанные с работой.

Ключевые слова: Специалист, Коммуникация, Профессиональная сфера, Строительство, Терминология, Деятельность, Иностранные языки, Иностранная культура.



Foreign language teachers for some special purposes usually have a lot in common with teachers of general foreign language. For both it is necessary to consider linguistic development and teaching theories, to have insights in contemporary ideas regarding their own position and role as well as the position and role of foreign language learners in education and to face new technologies offered as an aid to improve the methodology. The most important difference lies in the learners and their purposes for learning English. English for specific purposes students are usually adults who already have some acquaintance with English and are learning the language in order to communicate a set of professional skills and to perform particular job-related functions. The program is therefore built on an assessment of purposes and needs and the functions for which English is required. Specialized English concentrates more on language in context than on teaching grammar and language structures. It covers subjects varying from accounting or computer science to tourism and business management. From this prospective of view, English focal point is that English is not taught as a subject separated from the students' real world (or wishes); instead, it is integrated into a subject matter area important to the learners.

As a matter of fact, English in different fields combines subject matter and English language teaching. Such combination is highly motivating because students are able to apply what they learn in their English classes to their main field of study, whether it be accounting, business management, economics, medicine, computer science, architecture or construction.

One of the most important requirements for a modern specialist is his ability to participate in oral and written communication in the professional sphere, nature and content which are predetermined by the features of the subject area of activity type in construction discourse, in the perception and production of which the specialist will participate. The main purpose of training specialists with knowledge of a foreign language is to prepare them for a professional intercultural communication which is necessary for them to carry out professional activities in foreign languages and foreign cultures.

In the professional field, architects-builders intensively interact with foreign customers and therefore experience a real need for mastering a foreign language is necessary and successful tool to solve professional problems. One of them is, in particular, is the presentation of design technical activities of the architect-builder at international exhibitions and scientific publications in foreign sources. However, in order to create the formation of a foreign design project future architects do not have sufficient technical competence, which reduces the quality of the linguistic training of specialists and negatively affects on professional situations. Theoretical issues related to



the problem of teaching construction terminology in language competence of students are insufficiently developed and the need to form foreign language competence of technical, architectural, constructive terminology is always on demand.

Therefore, our research is actual and includes the following problems to solve: increasing the requirements for professional training of future architects, builders, expanding the information field of their professional activities that belong to language skills in their communication.

Methods and methodology. The research methods that I used in my research are as follows:

□ Cognitive-generalizing which is used to study and analyze the theoretical and practical work in the field of teaching methods of foreign languages. By this method our research focused on the analysis of programs, textbooks, handbooks in a foreign language for students of technical universities.

□ Diagnostic method has been utilized for surveys with students.

□ Praximetric method includes the analysis of processes involving the productivity of student activity, assessment of their work.

LITERATURE REVIEW. The theoretical and methodological basis of this study was the fundamental works of foreign scientists in the field of linguo-didactics of communicative linguistics, pedagogy. The work has a significant impact on these foreign authors: T.N. Astafurova, N.I. Almazova, A.L. Alekseeva, N.V. Baryshnikov, I.L. Bim, A.A. Verbitsky, I.R. Galperin, N.D. Galskova, N.I. Gez, S.V. Grinev, I.A. Zimnaya, I.L. Kolesnikova, Ya.M. Kolker, M.V. Koltunova, N.N. Kokhtev, L.G. Kuzmina, B.A. Lapidus, A.A. Leontiev, R.K. MinyarBeloruchev, E.A. Nozhin, A.V. Olyanich, E.I. Passov, E.R. Porshneva, I.V. J. Cumming, J. Ewer, T. Hutchinson, J. Munby, P. Strevens, A. Waters and so on.

RESULTS AND DISCUSSION. As practice shows, students of architectural and construction specialties traditionally observed a low level of proficiency in foreign language for several reasons:

- attitude to a foreign language as a secondary subject;
- low level of language teachers in this field; not enough taking into account

the intercultural professional needs of students;

architectural and construction specialties related, in particular, to formation of skills to present and protect a project in a foreign language, which is, in our opinion, one of the basic elements of professional competence of specialists in this profile.

The following tasks can be added to the model based on the above rules:

- Increase students' interest in the field of science, determine the level of ability to use knowledge in the field of construction as a didactic means of forming knowledge



in the field of construction in the field of non-philological education, determine the criteria for choosing a field;

- Modeling and improvement of the typology of virtual didactic games in the application of a complex mechanism for the use of knowledge in the field of construction in the formation of knowledge in the field of construction in the subject "English";

- Formation of linguistic knowledge (phonetic, lexical, grammatical speech, reading, listening, writing) of students of non-philological education in the field of construction, development of relevant guidelines and recommendations for the implementation of assessment criteria and quality indicators in a virtual learning environment

- In the field of knowledge construction, the formation of linguistic knowledge (phonetic, lexical, grammatical speech, reading, listening, writing) of students of non-philological education, assessment criteria and quality multiplier in a virtual learning environment, as well as the development of relevant references and recommendations for implementation in the classroom.

A leading approach to the formation of language competence among students in the field of construction has been revealed:

- A systematic approach is used as a general methodological principle for studying objects and phenomena in the context of scientific and practical activities.

A systematic approach to the study of a foreign language can be applied throughout the student's entire educational period in a higher educational institution and in a future career. In our study, the system principle is used in the design, communicative and spatial context. The presentation of lesson material with a systematic approach allows using the speech flow system as a starting point for syntactic analysis when constructing sentences at the initial stage. In our study, we used the linguistic competence of a master student of non-philological education to form the language competence of a master student of philological education, using knowledge in the field of construction.

Integrative approach - as a result of which a new force is created, the complex development of a minimum qualitative complex is required, which combines an object, phenomenon, person, community. At a certain level of proficiency, you can use a training video in a foreign language. The student will be asked about the content of the film in a foreign language.

The communicative approach is not just reading and writing text. Today, teachers choose modern education instead of traditional. They use new methods and tools to achieve the desired results. As a result, students are motivated to receive an



international education.

Cultural approach. When completing the system of schools with the teaching of foreign languages, a cultural approach is taken into account. Its main goal is the formation of cultural competence. This includes the principle of adaptation. The proposed method is based on the principles of social learning and keeps under control the cultural orientation of teaching a foreign language.

Experts define the following principles:

- oral orientation of training;
- taking into account the specifics of speech activity in a foreign language;
- modeling the situation of cultural communication in the educational

environment;

- rational use of native language and foreign language;
- taking care of the student's personal needs;

Systemic thinking when creating a set of exercises. Oral exercises always have a great effect. This is proof of the principle of the speech orientation of the education system with a culturological approach. With this knowledge, we can develop civilized communication skills. In the modern methodology of teaching a foreign language, the division into vocabulary, spelling, phonetics, grammar, speech, language, perceptual and creative skills is accepted. After all, the practical goal of training is an opportunity to improve communication skills. The teacher should choose the task taking into account the general aspect, so that students can participate in cultural communication at a general level. **Problem approach.** There is a loophole in this approach to improve the effectiveness of educational training provided on an ongoing basis. Learning a foreign language is a problem based learning that increases the need to develop a comprehensive understanding of a foreign language. Specialists use cognitive functions, including brain power, simulation creativity, and independent problem-solving skills.

Today, problem-based learning is an innovative aspect of teaching foreign students. This skill serves as a means of self-reflection and reflection of students. A teacher who uses a problem-based approach in teaching focuses on the systematic development of a student's independent work in a group. The main goal is to enable young people to get their own education. The development of creativity, perspective and attention to detail will continue in the next lesson.

Here is a summary of this advice:

- development of logical, passive and dialectical thinking;
- make the traditional education system more universal;
- regular problem solving;
- Completion of the education system.



Pedagogical and psychological analysis of the problem situation. It is present in all aspects of education and enhances the importance of both student activities and the educational institution itself. The teacher creates a problem situation to clarify, consolidate and compare the knowledge gained.

How to solve the problem situation:

- Motivation for a detailed explanation of the facts;
- Detailed analytical analysis of the life situation;
- Independent work on the practical application of knowledge.
- Based on motivational generalization and comparison of new facts.

One of the important situations in organizing the education of foreign students at the Faculty of Foreign Languages is a clear definition of the basis and foundation of the native language in the process of their professional education in the future student higher school. Interviews with students in the field of non-philological education in higher education, analysis of the attitude towards the fulfillment of the task aimed at the student, increased the fact that the majority of students are indifferent to the above factor, i.e. that is, they will be able to master a foreign language in their future professional activities.

Moreover, during the adaptation of the student, it was also determined that the lack of professional motivation for the foreign language being studied at the university increases the professional load on language teaching. When studying a foreign language at a non-philological faculty, the creation of positive motivation associated with the student's future career ensures an increase in the desire to learn a foreign language.

One of the most typical situations of speech and thought activity of an architect-builder is a presentation, discussion or the protection of architectural projects in a foreign language in the educational process and at international exhibitions after graduation [1, p. 26]. Presentation of an architectural project is defined as informing the audience about the construction or reconstruction of an object, searching for interested parties in supporting the development and implementation of the project. Foreign language presentation of an architectural project implies students have the relevant knowledge and skills that make up the foreign language design and technical competency, which will allow them to exchange special information with foreign colleagues, actively develop the international construction market, promote domestic projects, and compete with foreign architectural construction companies.

To select the learning content and develop an effective model for the formation among students of architectural and construction specialties it is necessary to identify the lexical and grammatical and terminological specifics of the sublanguage of architecture and construction: [2, p. 398]



1. term saturation of terminological usage in relation to commonly used in studied texts accounted 65 %;
2. the frequency of use of multicomponent terms and phrases in relation to simple ones was 23%;
3. high frequency use of one, two, three or more component abbreviations: c (ceiling), c (cold water), c (Celsius), A. T. (air temperature), b.p. (base plate), r. s. w (roof support, roof wall), A.E.S.C (American Engineering Standard Committee);
4. the high frequency usage of nouns as attributive function: wall board, lean board, layer board, ridge board, barge board; hammer beam, dragon beam, principal beam;
5. widespread use of verbs denoting architectural and construction processes: to design, to carry loads, to transfer, to resist, to compensate, to rotate, to fix, to restrain, to lean, to construct, to bear;
6. the usage of structures with participle I and II: adjoining arches, birding beam, hanging gutter, colonnaded space[3, p. 155];

CONCLUSION. Analysis of existing training material allowed the conclusion that it does not reflect the goals, content and forms of training required for the implementation of a full-fledged professional activity in modern conditions. Teaching students a foreign language is mainly limited to topics on the history of architecture, does not differ in the high practical importance of teaching all types of speech activity (reading, writing, speaking, listening) and language means, does not imply the development of presentations and skills, which significantly reduces the motivation of students who are interested in obtaining deeper knowledge of the specialty from foreign sources.

REFERENCES

1. Kornienko, O.P. "Presenting foreign language for architectural projects as the final stage of teaching English for future architect-builders", News of Russian state pedagogical university named after A. I. Herzen. p. 26.
2. Kornienko O. P. "English terminology texts of architecture and construction" scientific journal, St, Petersburg, 2008. P. 398.
3. Kornienko O. P. Proceedings of the Russian state pedagogical university. Graduate notebooks. Science magazine. St. Petersburg, 2008. P. 155



TO ' QIMACHILIK ATAMALARIGA OID KO ' P TILLI MOBIL ILOVALARNING AHAMIYATI

t.f.n. prof, Erken Sharipovich Alimboyev,
Jizzax politexnika instituti

t.f.n. dots, Matluba Adashbayevna
Doniyorova, Jizzax politexnika instituti
matlubadoniyorova1980@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda to ' qimachilik sanoatida bilish muhim. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda mamlakatimizga xorijiy zamonaviy texnologiyalar va mutaxassislarning kirib kelishi, ular bilan samarali muloqot va tajriba almashishda soha ziyolilari va xodimlarining chet tillarni mukammal egallashliklari zaruriyati bayon qilingan. to ' qimachilik atamalariga oid 4 ta tilli lug ' at mobil ilova yaratildi. Ushbu ilovadan nafaqat o 'zbek tilidagi, shuningdek, rus, ingliz va nemis tilida ish yurituvchi soha xodimlari, talabalar va o 'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so 'zlar: to'qimachilik sanoati, xorijiy, texnologiya, mutaxassis, samarali muloqot, tajriba almashish, chet tillar, mutaxassislikka oid, lug'at, atama, mobil ilova, o'zbek, rus, ingliz nemis tillari.

Аннотация: В данной статье рассмотрено важность развития текстильной промышленности. В нашей стране ученым и работникам отрасли необходимо в совершенстве владеть иностранными языками, чтобы привлекать зарубежные современные технологии и экспертов, эффективно общаться с ними и обмениваться опытом. Учитывая это, было создано мобильное приложение на 4 языках, связанное с текстильной отраслью.

Ключевые слова: текстильная промышленность, иностранный, технология, специалист, эффективное общение, обмен опытом, иностранные языки, специалист, словарь, термины, мобильное приложение, узбекский, русский, английский, немецкий языки.

Abstract: This article discusses the importance of the development of the textile industry. In our country, scientists and industry workers need to be fluent in foreign languages in order to attract foreign modern technologies and experts, communicate effectively with them and exchange experiences. Taking this into account, a mobile application related to the textile industry was created in 4 languages.

Key words: textile industry, foreign, technology, specialist, effective communication, exchange of experience, foreign languages, specialist, dictionary, terms, mobile application, Uzbek, Russian, English, German languages.




KIRISH. Ma'lumki, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib, Milliy iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri to'qimachilik sanoatida ham salmoqli islohotlar olib borilmoqda. Sohani jadal rivojlantirish uchun investitsiyalar kiritilib tashkil etilgan xususiy, qo'shma va xorijiy korxonalarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. To'qimachilik korxonalari jahonga mashhur firma va kompaniyalarning texnologik uskunalari bilan jihozlangan. Shuningdek, yurtimizda to'qimachilik sohasidagi xalqaro konferensiya va ko'rgazmalar yuqori saviyada tashkil etilmoqda [1]. To'qimachilik sanoatini tez sur'atlar bilan rivojlanishi yangi so'zlar, iboralar va atamalarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Xorijiy texnologik jihozlarning texnik va texnologik ko'rsatkichlari, ishlash prinsipi aksariyat, rus, ingliz yoki nemis tillarida tavsiflangan.

Undan tashqari ushbu sohada tahsil olayotgan texnikum va oliy ta'lim muassalari talabalari ertangi kunda ishlab chiqarish korxonalarida mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatadi. Ularning o'z mutaxassisligini o'zbek tilida yaxshi o'zlashtirishidan tashqari mutaxassislikka oid so'zlar va iboralarni chet tillarda yaxshi bilishi va tushunishi har tomonlama maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida qator Qaror va Farmonlar qabul qilindi. Xususan, dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni qator ta'lim tashkilotlari, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida joriy etish, xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalaridan foydalanish, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'rgatuvchi kontentlar yaratish, fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish kabi masalalar ko'zda tutilgan [2,3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bugungi kunda mobil aloqa qurilmalari hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik muloqotimiz, ilmiy-ijodiy faoliyat, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha [4], smartfon foydalanuvchisi kun davomida o'rtacha 50 marotaba "aqli telefon"ga nazar solar ekan. Mobil qurilmalardan ta'limda foydalanish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Ta'limda mobil ilovalardan

foydalanish dolzarbligi va talab yuqoriligi - mobil qurilmalardan keng foydalanish, moslashuvchanlik va harakatchanlik, interaktivlik va faollik, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish kabi tushunchalar bilan izohlanadi [5]. O'zbekistonda, E.Sh.Alimboyev va boshqalar tomonidan birinchi marta to'qimachilik materiallari va texnologiyasi bo'yicha izohli lug'at [3] ishlab chiqildi. Ushbu to'rt tilli (o'zbek, rus, ingliz va nemis) lug'atda atamalar va iboralar izohlangan, sharh bilan birga ayrim rasm va chizmalar keltirilgan. Ushbu qimmatli manba soha o'qituvchilari, talabalari, magistrlar va doktorantlar, ilmiy tadqiqot olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarini marketolog va muhandislari tomonidan keng ko'lamda samarali foydalanilmoqda. Kitob shaklidagi adabiy manbalardan bilan bir qatorda elektron manbalardan foydalanish ham foydadan holi bo'lmaydi. Kitob shaklidagi katta xajmli lug'atlardan ko'ra, ularning mobil ilovalaridan foydalanishning juda ko'p samaralari isbotlangan.



1-rasm. To'qimachilik atamalariga oid mobil ilovadan foydalanish. NATIJALAR. Shu nuqtai nazardan, to'qimachilik materiallari va texnologiyasi bo'yicha izohli lug'atning mobil ilovasini ishlab chiqish borasida samarali ishlar olib borildi va ilova dasturi ishlab chiqildi. Dastur mobil ilova sifatida o'rnatiladi (1-rasm) va foydalanish qulayligiga ega. Mobil ilova ishga tushirilishi bilan dasturning asosiy oynasi ochiladi va qidiruv belgisi ustida tarjimasini kerakli bo'lgan "atama" yozuvi kiritiladi va ushbu "atama" ishtirok etgan barcha izohli so'zlar va so'z birikmalari o'zbek tilida (kirill va lotin yozuvida), ingliz, rus va nemis tilidagi tarjimalari bilan birgalikda asosiy oynada hosil bo'ladi. Ushbu ilovadan nafaqat o'zbek tilida so'zlashuvchilar,



shuningdek, rusiyzabon, ingliz va nemis tili foydalanuvchilari ham foydalanishlari mumkin. Shuningdek, ushbu ilovada, ilova to'g'risida va ushbu lug'atni yig'ish va kitob holatida chop etishda rahbarlik qilgan muallif, professor E.Sh.Alimboyev haqidagi qisqa ma'lumot ham kiritilgan.

MUHOKAMA. Quyida izohli atamalarga oid ko'p tilli lug'atni ishlab chiqish va undan foydalanishdagi samaralari to'g'risida ayrim mulohazali fikrlar keltirildi. Ilmiy tadqiqotchi foydalanuvchilar ilmiy izlanishlarining adabiy sharhida chet el adabiyotlari yoki nufuzli Scopus nashrlari asosida to'g'ri tarjimadan foydalanadi, ilmiy tadqiqot ishi natijalarini eng nufuzli jurnal va konferensiyalarda e'lon qilishda deyarli muvaffaqiyatsizlikka uchramaydi. Talabalarga mutaxassislik fanlarini chet tilida tashkil etish muammosi ijobiy hal qilinadi. Ta'limni chet elda magistratura yoki doktoranturada davom ettirish, xorijiy grantlarda ishtirok etish va yutish bo'yicha duch keladigan muammolar kuzatilmaydi. Shuningdek, texnologik nuqtai nazardan, soha mutaxassisi korxonaga yangi keltirilayotgan uskunalarning texnik tavsifini tahlil qila oladi, ilmiy texnika taraqqiyotida bo'layotgan eng yangi o'zgarishlardan vaqtida foydalana oladi, soha korxonalariga tatbiq qila oladi, "Made in Uzbekistan" tamg'asi bilan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar marketingi va eksportida yuqori natijalar qayd etiladi. Import mahsulotlarini o'rnini bosadigan mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishda adabiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan, ma'naviy eskirgan uskunalarni O'zbekiston korxonalariga katta mablag'larga kelishini oldini oladi, shuningdek, chet ellik investorlar bilan mutaxassislikka oid masalalar to'g'ri talqin qilinadi. Shuningdek, xalqaro nufuzli ta'lim muassalari va kompaniyalarda tajriba almashinish yoki yurtimizga tashrif buyurgan chet ellik mutaxassislar bilan samarali aloqa o'rnatishi orqali soha rivojlantiriladi.

XULOSA. Mamlakatimiz to'qimachilik korxonalariga xorijdan zamonaviy texnika va texnologiyalarning keltirilishi, xorijlik mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilishda sohaga oid asosiy atama va iboralarni bilish muhim. Shu nuqtai nazardan, to'qimachilik atamalariga oid 4 ta tilli lug'at mobil ilova yaratildi. Ushbu ilovadan nafaqat o'zbek tilidagi, shuningdek, rus, ingliz va nemis tilida ish yurituvchi soha xodimlari, talabalar va o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so'zi gazetasi, <https://xs.uz/uz/post/uztextile-expo-autumn-2024-korgazmasidan-fotoreportazh>, 15.10.2024 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021 yil 19 maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat



jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5117-sonli Qarori.

Ўzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 19 yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 34-son Qarori.

Ўjumayev S.N., Shodmonov D.A., Ortiqova N.E. (2023). Ta'limda mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari. Raqamli texnologiyalarning nazariy va amaliy masalalari xalqaro jurnali. 2(4). – B. 90-95.

5. M.A.Farmonova. Ta'lim umundorligini oshirishda mobil ilovalarning o' rni. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES Vol.2, ISSUE 3, 2021

6. E.Sh.Alimboyev va boshqalar. To ' qimachilik materiallari va texnologiyasi bo ' yicha izohli lug ' at. TTYESI, 2021 yil.



JizPI



ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШНИНГ ҲОЗИРГИ ШАРОИТИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Бердикулов А.М. Иқтисодиёт фанлари номзоди, Жиззах политехника институти “Бино ва иншоотлар қурилиши” кафедраси доценти

Аннотация: Реструктуризациялаш жараёнларини кўриб чиқувчи тадқиқотлари таҳлили корхонани ислоҳ қилиш тушунчаси ва методикасига нисбатан турлича муносабатлар мавжудлигини кўрсатиб берди. Чет эллик муаллифларнинг тадқиқотлари бизнес–жараёнларни ўзгартиришга, инжиниринг ёндашувлардан фойдаланишга йўналтирилган. Ушбу тадқиқотларни ҳисобга олган ҳолда муаллиф томонидан ўзгаришлар даражаси тезкор реструктуризациялашдан стратегик реструктуризациялашга томон ўсиб борувчи, сўнгра таклиф этилаётган реструктуризациялашни амалга ошириш йўллари, усуллари ва босқичларига аниқлик киритган ҳолда бизнес–жараёнларини ишлаб чиқиш имконини берувчи реструктуризациялашнинг концептуал модели ифодаланди.

Калит сўзлар: Реструктуризациялаш, модернизация қилиш, диверсификация қилиш, стратегия, ишлаб чиқариш, маркетинг, менежмент, молиявий ресурслар, стратегик концепция, молиявий реструктуризациялаш, тизимли таҳлил, бизнес режа, сифатни комплекс бошқариш

Annotation: An analysis of research examining restructuring processes has shown that there are different approaches to the concept and methodology of enterprise reform. Researches by foreign authors is aimed at changing business processes and the use of engineering approaches. These studies, the author expressed a conceptual model of restructuring, the level of change of which increases from rapid restructuring to strategic restructuring, and then allows to develop business processes with clarification of the proposed ways, methods and stages of restructuring.

Keywords: Restructuring, modernization, diversification, strategy, production, marketing, management, financial resources, strategic concept, financial restructuring, system analysis, business plan, integrated quality management

Бердикулов А.М. Кандидат экономических наук, доцент кафедры «Строительство зданий и сооружений» Джизакского политехнического института

Аннотация: Анализ исследований, изучающих процессы реструктуризации, показал, что существуют разные подходы к концепции и методологии



реформирования предприятий. Исследования зарубежных авторов направлены на изменение бизнес-процессов, использование инженерных подходов. С учетом этих исследований автором изложена концептуальная модель реструктуризации, уровень изменения которой возрастает от быстрой реструктуризации до стратегической реструктуризации, а затем позволяет разрабатывать бизнес-процессы с уточнением предлагаемых способов, методов и этапов реструктуризации.

Ключевые слова: реструктуризация, модернизация, диверсификация, стратегия, производство, маркетинг, управление, финансовые ресурсы, стратегическая концепция, финансовая реструктуризация, системный анализ, бизнес-план, интегрированное управление качеством

Кириш. Қурилиш материаллари саноати бежизга инвестицион фаоллик манбаи, деб аташмайди. Қурилиш мажмуидаги вазиятга қараб мамлакат иқтисодиётида юз бераётган инвестицион жараёнлар ҳақида беҳато мулоҳаза юритиш мумкин. Ўзбекистонда ушбу тармоқнинг ривожланишига катта эътибор қаратилади.

янги Қурилиш материаллари, конструкциялар ва маҳсулотларнинг замонавий турлари ассортиментини узлуксиз кенгайтириш кадрлар тайёрлаш, мактаб таълими ва уй – жой қурилишини ривожлантириш умуммиллий дастурларини амалга ошириш, шунингдек экспорт салоҳиятини ошириш учун зарур.

Республикамизда рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва экспорт қилиш бўйича барқарор ўсиш суратларини таъминлаш, шунингдек, корхоналарни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилашга қаратилган қурилиш материаллари саноатидаги таркибий ўзгартиришларни янада чуқурлаштириш юзасидан тизимли ишлар амалга оширилмоқда.[1].

Ўз вақтида ва малакали ўтказилган реструктуризациялаш корхонага катта рақобатчилик устунликларини беради. Асосли реструктуризациялашни амалга ошириш ташқаридан бевосита инвестициялар кўринишида маблағлар келиши ва маҳаллий ҳокимиятларнинг қўллаб– қувватлашига хизмат қилади.

Асосий реструктуризациялаш усули – корхонанинг мавжуд тузилмасидан мустақил бизнес бирликларни, яъни бозорда харидоргир маҳсулот ишлаб чиқарган ҳолда, ўз фаолиятини бозор учун керакли йўналишларда диверсификациялаш, харажатларни минималлаштириш, ўз ходимларини лозим иш ҳақи билан таъминлаш ва бозорда истиқболли ўринларни эгаллаш учун



мавжуд ишлаб чиқариш ва кадрлар имкониятларини максимал ишга солишга интиладиган кичик корхоналарни ажратиб чиқариш.

Биз реструктуризациялаш дастурини ишлаб чиқиш учун асос ҳисобланган корхонанинг концептуал реструктуризациялаш моделини таклиф қиламиз (1.1–расм).

Мазкур модел бир қанча хорижий тадқиқотчилар [4] томонидан қўлланилган ёндашувлар ва услубларни, шунингдек корхона реструктуризациялашнинг амалий тажрибасини умумлаштиради.

Модел иккита асосий 1 ва 2 блокларни ўз ичига олади. Биринчи блок 2–блокни реструктуризациялаш ишларининг бир қисми ёки ҳаммасини амалга оширишда таянилган ўзгартиришларнинг чуқурлигини характерлайди.


Ушбу мезон бўйича учта даража: оператив, стратегиква бизнес–жараёнлар даражаси ажратилган.

Корхонанинг айрим кичик тизимларини реструктуризациялаш ишлари босқичлари ва ҳажмларини белгилаш учун мезон сифатида ишлаб чиқариш–хўжалик комплексининг бошқаруви ва ҳолатини ривожлантириш даражасидан фойдаланиш таклиф қилинади.

Иккинчи блок реструктуризациялаш дастурини амалга ошириш учун зарур ҳаракатлар кетма–кетлигини ўз ичига олади. Бунда реструктуризациялаш дастури деганда, ҳар битта лойиҳани мустақил равишда бошқаришда олиб бўлмайдиган қўшимча фойдаларни таъминлаш учун мувофиқлаштирилган бошқариш ёрдамида амалга ошириладиган лойиҳалар гуруҳи тушунилади. Реструктуризациялаш тўғрисида қарор қабул қилиш корхоналар аҳволининг ҳар қандай босқичида долзарб ва корхонанинг кичик тизимларидан бирига йўналганликни тақозо этади. Шунинг учун ушбу босқичда юқори менеджмент учун бош вазифа корхонани ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган элементларни тўғри аниқлаш қобилияти ва ўз вақтида ва тўғри қарорлар қабул қилишни қийинлаштирувчи субъектив тўсиқларни енгиб ўтишга интилиш ҳисобланади. [3].

Бир қанча корхоналарни реструктуризациялаш тажрибаси шуни кўрсатадики, кўпинча харажатларни қисқартириш билан боғлиқ ўзгартиришларнинг дастлабки йўналиши танланади.

2-блок



1.1–расм. Корхонани реструктуризациялаш концептуал модели Манба: муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган

Кейинги босқич – дастлабки таҳлил бўлиб, раҳбариятнинг стратегик позицияларини мувофиқлаштириш учун хизмат қилади ва қуйидаги вазифаларни ўз ичига олади:

□ раҳбариятнинг корхонадаги реал аҳвол ва ички ҳамда ташқи муҳит таъсирининг умумий тенденциялари тўғрисидаги тасаввурларни шакллантириш;



- корхона бошқарувчилари ва эгаларининг дастлабки стратегик мақсадлар ва бўлажак ўзгаришларга ягона принципиал ёндашувини ишлаб чиқиш;
- реструктуризациялаш дастурини тайёрлаш ва қўшимча ҳамда тартибга солувчи ҳужжатларни жалб қилиш заруратини аниқлаш учун корхонанинг ўз имкониятларини баҳолаш, ушбу ҳужжатларда қуйидагилар белгиланади:
- ўзгартиришлар зарурати ва умумий йўналиши;
- реструктуризациялаш бўйича жамоа таркиби, шахсий функциялар, иштирокчиларнинг ваколатлари ва жавобгарлиги;
- алоҳида лойиҳалар ва бутун дастурларни ишлаб чиқиш, тасдиқлаш, жорий қилиш, назорат қилиш ва баҳолаш умумий тартиби;
- реструктуризациялаш дастурини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнида ходимлар билан ҳамкорлик концепцияси ва қоидалари.

Барча кейинги ҳаракатларни амалга ошириш учун ташкилий базани тайёрлаш босқичининг алоҳида аҳамиятини қайд этиш зарур.

Кейинги учта элемент – ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш, реструктуризациялаш концепциясини шакллантириш ва бизнес режаларни ишлаб чиқиш – алоҳида режалаштириш блокини ифода этади. Умуман олганда корхона томонидан ҳам асосий фаолият доирасида, ҳам ўзгартиришлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш босқичида шакллантириладиган режалар тизимини иккита даражага ажратиш мумкин: стратегик ва жорий. Биринчи даражадаги вазифа ҳаракатларнинг устувор йўналишларини ва корхонани ривожлантириш концепциясини белгилаш, иккинчи даражадаги вазифа – стратегик режаларни деталлаштириш варамайлаштириш ҳисобланади.

Ривожланиш стратегияси корхона миссиясига асосланган стратегик ҳис этишни ва ривожланиш мақсадини, шунингдек олдинга қўйилган мақсадларга эришишнинг асосий йўналишларини ўз ичига олади.

Корхонани реструктуризациялаш концепцияси бизнеснинг алоҳида турлари, функционал блоklar ва лойиҳаларга деталлаштирилган ҳолда ривожланиш стратегиясининг барча йўналишлари бўйича олдинга қўйилган мақсадларга эришиш йўллари ўзида мужассам этиши лозим.

Иккита бошқа унсур – бизнес-режаларни ишлаб чиқиш ва лойиҳаларни баҳолаш – анча муфассал хусусиятга эга бўлиб, чуқур формаллашган бўлиши керак. Биринчи навбатда, бизнес–режаларнинг мазмунига нисбатан талабларни, шунингдек лойиҳаларни баҳолаш мезонлари ва тартибини белгилаб олиш зарур.

Шундай қилиб, биз тақдим этган реструктуризациялашнинг концептуал модели ва ўзгаришлар лойиҳаларининг изчил босқичлари корхонани



реструктуризациялашнинг ҳар бир муайян босқичида вазифаларнинг ўзига хос жиҳатларини аниқлаш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Таъкидлаш лозимки, реструктуризациялаш нафақат самарасиз бошқарув тизимига эга бўлган “муаммоли” корхоналар учун, балки нормал ишлаб турган корхоналар учун ҳам зарур.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 майдаги ПҚ-4335-сон “Қурилиш материаллари саноатини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.

1. Семь нот менеджмента. – Изд. пятое. Дополненное. - М.: ЗАО Журнал эксперт, 2002. - 656 с.

Даниев К.Б., Ганиева Г.И, Бердикулов А, Сиддиков М. Экономика и организация реконструкции при реструктуризации предприятия . // Учебное пособие. Издательство Фан АН РУЗ 2010 г.

3. Реструктуризация – основа оздоровления предприятия // Экономический вестник Узбекистан. – Ташкент, 2002. - №1 -2. -С 14-16

4. jiz.stat@exat.uz

JizPI



ЎЗБЕКИСТОНДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ

**Джамолов Ўткир Илхомович, и.ф.ф.д.,
доцент – Jizzax politexnika instituti.**

Аннотация. Мақолада кичик бизнес ва хусусий ривожлантиришга Давлатимиз раҳбарининг эътибори, тадбиркорлик фаолияти ва уни ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Кичик бизнес, тадбиркорлик, ишбилармонлик, мативация, рақобатбардошлик, ижтимоий, иқтисодий аҳамият.

Аннотация. В статье рассматривается внимание главы государства к развитию малого бизнеса и частного предпринимательства, предпринимательская деятельность и социально-экономическое значение ее развития.

Ключевые слова: Малый бизнес, предпринимательство, предпринимательская деятельность, мотивация, конкурентоспособность, перспективность, экономическая значимость.

Annotation. The article reflects on the attention of the head of state to the development of small business and private entrepreneurship, on entrepreneurial activity and the socio-economic importance of its development.

Key words: Small business, entrepreneurship, business, mativasiya, competitiveness, ijtimoiy, economic importance.

Кучли рақобат муҳитининг шаклланиши тадбиркорлик фаолиятига ҳам ўзининг таъсирини ўтказган ҳолда мамлакатимизда экспорт салоҳиятини қўллаб-қувватлаш, импортни камайтириш масалалари соҳа олдида турган долзарб ва ўз ечимини кутаётган вазифалардан бири ҳисобланади. Шу боис, тадбиркорлик фаолияти барқарор ривожланишида республикамизда фаолиятини ривожлантиришнинг мотивациявий омиллар таъсирида ривожланиш услубиятини ишлаб чиқишдан иборат.

Иқтисодий ривожланишнинг юқори суръатларини таъминлаш шароитида тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, мазкур фаолиятни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизими самарадорлигини ошириш ва уларнинг ривожланишида мотивациявий омиллар таъсирини кучайтиришнинг илмий-услубий асосларини ишлаб чиқишни талаб этмоқда.



Шу жиҳатдан, республикамизда тадбиркорлик фаолиятини мотивациявий омиллар таъсирида ривожлантириш ва уни самарали бошқарув тизимини такомиллаштиришга жорий этиш бугунги куннинг муҳим ва долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистонда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш муаммолари, шу жумладан, тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш ва бошқариш жараёнини ўрганиш бўйича кўпгина олимлар томонидан илмий тадқиқот ишлари олиб борилган.

Умуман олганда тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва ривожлантириш борасида илмий изланишлар олиб борган соҳа олимлари асосан ўз қарашларини тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришга катта аҳамият берганликларини таъкидлаб ўтиш лозим.

Ўзбекистонда тадбиркорлик фаолиятини мотивацион омиллар таъсирида ривожлантириш ва самарали бошқаришни ташкил этиш орқали маҳсулот ишлаб чиқариш кўламини кенгайтириш, тадбиркорлик фаолиятидаги муаммоларни бартараф этиш орқали тадбиркорлик фаолиятини бошқариш тизимини ривожланишида кенг имкониятлар очиб беради.


Тадбиркорлик, мамлакатимизнинг барча ҳудудларида фаолиятини тўғри ташкил этиш, уларга қулай имконият ва шарт-шароитлар яратиш, тадбиркорлик фаолиятига эркинлик бериш, турли тўсиқ ва бошқарув органлари аралашувини бартараф этиш иқтисодиёт олдидаги ўз ечимини кутаётган вазифалардан ҳисобланади.

Бозор муносабатлари барқарор ривожланаётган бир даврда тадбиркорлик билан шуғулланувчи иқтисодий фаолият субъектларининг ишлаб чиқаришни ташкил қилишга йўналтирилган мустақиллиги, доимий фаоллиги ва ўз фикрига асосланган ташаббускорлиги ижтимоий-иқтисодий ҳолат такомиллашувини ифодалайди.

Тадбиркорлик фаолияти ва унинг асосий мақсади – ўз фаолияти натижасида тадбиркорлик даромади ёки фойда олиш учун моддий ёки бошқа неъматлар ишлаб чиқариш ва бозорда истеъмолчилар талабини қондиришдан иборат. Шунингдек, тадбиркорлик фаолиятини ривожланиши натижасида жойларда янги иш ўринларини яратиш, давлат ва маҳаллий бюджетга солиқ тўлаш йўли билан иқтисодий ва ижтимоий вазифаларни бажариш ҳисобланади.

Мамлакатимизда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг ижтимоий аҳамияти асосан қуйидагилардан иборат:

□ Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали жамият аҳолисининг ижтимоий фаровонлиги янада ортади;



1-чизма. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти.⁴

⁴ Муаллифнинг илмий-тадқиқотлари асосида тайёрланган



- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали аҳолини иш билан таъминланиши яхшиланади, яъни янги иш ўринлари яратилади;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали аҳоли ўртасидаги турли зиддиятларнинг олди олинади;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали ижтимоий яшаш тарзи ўзгаради ва аҳолининг яхши яшашига реал имкониятлар юзага келади;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали давлатнинг ижтимоий-сиёсий жиҳатдан барқарорлиги ортади;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали маданий-маиший соҳалардан тўғри фойдаланишга кенг имкониятлар яратилади.

Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг иқтисодий аҳамияти ҳам юқори бўлиб, у қуйидагилардан иборат:

- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали хусусий мулкдан самарали фойдаланиш имконияти яратилади;
- Тадбиркор мустақил ишлаб чиқариш жараёнини шакллантиради ва аҳолини иш билан таъминлашда иштирок этади;
- Тадбиркор ўз изланишлари натижасида янги технологияларни яратиши ва ишлаб чиқаришда қўллаш орқали мавжуд ресурслардан самарали фойдаланишга доимо ҳаракат қилади;
- Тадбиркор янги турдаги хом ашёларни ишлаб чиқаришга жорий этиши орқали истеъмолчи талабларини қондиришга ҳаракат қилади;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали аҳолининг реал даромадлари ортади ва яшаш тарзи ўзгаради;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали ишлаб чиқарувчилар ўртасида соғлом рақобат муҳити яратилади ва истеъмолчи ўртасида маҳсулотларни эркин танлашга шароит яратилади;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали давлатнинг иқтисодий ва сиёсий мавқеи яхшиланади;
- Тадбиркорлик фаолиятини ташкил қилиш орқали давлатнинг инвестицион муҳити яхшиланади ва инвесторларнинг қизиқиши ортади.


Бизнинг фикримизча, тадбиркорликни ривожлантиришнинг ижтимоий ва иқтисодий аҳамияти юқори бўлиб, ҳар тадбиркор барча соҳаларда ҳам обрў-эътиборга эришиш учун жамият олдидаги манфаатларни ўз манфаатидан устун деб билиши ҳамда ўзининг барча имкониятини бошқарув жараёнига тўғри татбиқ эта олганда яхши натижаларга эриша олади.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

2024 йил 20 августдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тadbirkorлари билан очиқ мулоқот шаклида ўтказилган учрашувдаги нутқи.

2. Маслоу А. Г. Мотивация и личность. — СПб.: Евразия, 1999. — 478 с.
3. *Муаллифнинг илмий ишланма ва мақолалари.*



JizPI

**QISQA XABARLAR**

УДК 546.41; 678.745

**ГОССИПОЛ ШИФФ АСОСЛАРИНИНГ ТУРЛИ КОМПЛЕКСЛАРИ
СИНТЕЗИ ВА МАКРОФАГЛАР МИҚДОРИГА ТАЪСИРИ****Шухрат Хакбердиев Махрамович,**

Жиззах политехника институти

“Кимё” кафедраси мудири

к.ф.ф.д. (PhD), доцент E-mail:

h.shyxr81@gmail.com

tel: 93-650-91-99

Аннотация: Госсипол хосиллалари, глицирризин кислотасининг моноаммонийл тузи билан супрамолекуляр комплекслар, госсипол Шифф асосларининг Cu тузлари билан металлокомплекслари синтез қилинди. Уларнинг ИҚ ва УБ спектрлари таҳлил қилинди ва сичқонларда тажриба ўтказилиб, уларнинг тимуси ва қора талоқнинг ядро тутган хужайра миқдорини претионал суюқликларда 24 ва 48 соат динамикада ўрганилди.

Калит сўзлар: Шифф асоси, супрамолекуляр комплекс, синтез, госсипол, макрофаг.

Abstract: Synthesized derivatives of gossypol, supramolecular complexes with monoammonium salt of glycyrrhizic acid, the metal complexes of Schiff bases of gossypol and salts of Cu. Analyze their IR, UV spectra and studied their effect on the number of macrophages within 24 and 48 hours in peritoneal fluid of thymus and spleen of intact mice.

Key words: Schiff basis, supramolecular complex, synthesis, gossypol, macrofag.

Аннотация: Синтезированы производные госсипола, супрамолекулярные кислоты, комплексы с моноаммониевой солью глицирризиновой кислоты, металлокомплексы шиффовых оснований госсипола и солей Cu. Анализированы их ИК, УФ спектры и изучено их воздействие на количества макрофагов в течение 24 и 48 часов в перитониальной жидкости тимуса и селезенки intactных мышей.

Ключевые слова: Шифф основа, супрамолекулярный комплекс, синтез, госсипол, макрофаг.

Госсипол полифенол табиатига эга бўлган табиий бирикма, ўзининг кимёвий тузилиши, биологик фаоллигининг хилма-хиллиги билан биргаликда турли хил вирусли касалликлар, шамоллаш, ошқозон-ичак яралари ва шишларга




қарши дори воситаларни яратишда асосий манба ҳисобланади. Госсипол ҳосилаларининг айримлари юқори биологик фаоллиги билан биргаликда кучли интерферон индукциолаш хусусиятига ҳам эгадир[1-2].

Янги госсипол ҳосилаларини синтез қилиш, биологик фаолликларини ўрганиш ва улар асосида иммунитет ҳасталикларига қарши дори воситаларини яратиш, муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда госсипол билан айрим бирламчи аминлар 1:2 моль нисбатда олинади ва уларни C_2H_5OH да эритиб $70-80^{\circ}$ температурада 3 соат давомида реакция олиб борилади. Реакция боришини ЮҚХ (юпқа қатламли хроматография) усули ёрдамида назорат қилинди ва чўкмага тушган реакция маҳсулоти филтирлаб олинди.

Госсипол Шифф асослари олишнинг реакция схемаси:



Олинган госсипол ҳосилалари УБ- спектрларида 270-350 нм оралиғида ютилиш максимумлари кузатилди. ИҚ- спектрлари таҳлил қилинганда $-CHO$ гурӯҳга тегишли $1720-1750\text{ см}^{-1}$ даги валент тебранишлар йўқолиб, ўрнига $-CH=NH-$ ва $=CH-NH-$ гурӯҳларга тегишли $1602,8-1672,9\text{ см}^{-1}$ оралиқдаги валент тебранишлар кузатилди.

1-жадвал

Госсипол Шифф асосларининг айрим физик-кимёвий катталиклари


№	Радикал	$T_{\text{суюқ}}^{\circ}C$	R_f	Реакция уними %	ИК-спектр Натижалари	УБ-спектр Натижалари
I		263-264	0,90 ¹ 0,87 ²	89	1617,97;1591,01	240,54;280,1 427,98
II	$HOCH_2CH_2CH_2N=$	256-257	0,40 ³ 0,17	83	1625,81;1510,48	248,71; 300,43

Система: **1)** Бензол-ацетон(4:1); **2)** Бензол-ацетон(5:1); **3)** Бензол-ацетон(4:3)

Глицерризин килотаси (ГК) ва глицерризин килотаси моноаммонийли тузи (ГКМАТ) турли дори воситалар билан комплекслар ҳосил қилиши маълум бўлиб, бунда ГКМАТ биоўзлаштиришни ошириб, заҳарлиликни камайтиради, таъсир қилиш самарадорлигини жуда кичик дозаларда ҳам сақлаб қолиш имкониятини беради [3-4].

ГКМАТ супромолекуляр комплексларни ҳосил қилишида қисмидаги $-COOH$, OH - гуруҳлари “меҳмон” молекуласининг протоноакцептор ва протонодонор гуруҳлари билан водород боғларни ҳосил қилиши, ҳамда “мезбон” ва “меҳмон” молекулалари ўртасида турли нисбатларда фазовий мутаносиблик юзага келишида катта имкониятларни яратади [5-6].

Госсипол ҳосилалари билан ГКМАТнинг (1:4) нисбатдаги супрамoleкуляр комплекслари олишнинг реакция схемаси:



Госсипол ҳосилалари билан ГКМАТнинг 1:4 нисбатдаги супрамoleкуляр комплексларини олишда 4 моль ГКМАТ 50% C_2H_5OH да эритилиб, унга 1 мол госсипол ҳосиласи қўшилади ва $50-60^\circ C$ ҳароратда, 12 соат давомида реакция олиб борилади. Комплекс ҳосил бўлгач спиртли қисми роторли буғлатгич ёрдамида ҳайдалади ва сувли қисми лиофил усулида учириб юборилади. Натижада оқиш сариқ бўлган супрамoleкуляр комплекс олинади.

2-жадвал

Госсипол ҳосилалари билан ГКМАТнинг (1:4) нисбатдаги супрамoleкуляр комплексларининг айрим физик-кимёвий катталиклари

№	Шифф асоси	Шифф асоси ГКМАТ нисбати	$T_{суюқ} ^\circ C$	R_f	Реакция уними %	ИК-спектр натижалари	УБ-спектр Натижалари
II I	I	1:4	239-240	0.64 ^I	98	1723,18; 1644,75	244,33; 424,72



I	II	1:4	207-	0.62 ¹	94	1716,23;	245,81;
V			208			1621,92	377,02

Система: **1)**гексан-ацетон (3:2)

Супромолекуляр комплексларнинг УБ- ва ИҚ- спектрлари таҳлил қилинганда, комплекс бирикмалар таркибидаги водород боғлар ҳисобига госсипол ҳосилалари спектридаги сигналларнинг кенгайганлиги маълум бўлди. Госсипол ҳосилаларининг биологик фаолигини ошириш мақсадида Си тузлари билан металлокомплекслар синтез қилинди. Маълумотларга кўра металокомплексларда госсипол ҳосилалари билан металл катионлари амин-амин тоутомер ҳолатда бўлади, металл катионлари -ОН гуруҳнинг кислород атоми ва N атомининг тоқ электронлари орқали координатцион боғ ҳосил қилади.

Ди(3-аминопропанол-1)госсипол билан $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ нинг ҳосил қилган металлокомплекси ИҚ- спектри таҳлил қилинганда $-\text{N}=\text{CH}-$ боғнинг валент тебранишлари ҳисобига юзага келган $1625,81; 1510,48 \text{ см}^{-1}$ да ютилиш максимумларининг ўзгармаганлиги ва $3479,34; 3411,77 \text{ см}^{-1}$ соҳада металлокомплексларда водород боғлар ҳисобига рўй берган валент тебранишларни кўриш мумкун [7-8].

Ди(3-аминопропанол-1)госсиполнинг УБ спектрида $248,71; 300,43; \text{нм}$ лардаги ютилиш максимумлари $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ билан ҳосил қилган металлокомплексларда водород боғлар ҳисобига $216,66; 294,44; \text{нм}$ га сурилди.

3-жадвал

Госсипол ҳосилалари билан Си тузлари металлокомплексларининг айрим физик-кимёвий катталиклари

№	Шифф асоси ва туз	Шифф Си тузи нисбати	$T_{\text{суюқ}} \text{ } ^\circ\text{C}$	R_f	Модда ранги	Реакция уними %
V	$\text{Cu}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$	2:1	283-284	0,61 ²	Тўқ жигар ранг	71
V I	$\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	2:1	296-297	0,49 ¹	Тўқ жигар ранг	68

Система: **1)**Гексан:Ацетон (4:1); **2)**Гексан:Ацетон:ДМСО(4:1:0,5)

Олинган моддаларни *in vivo* интакт сичқонлар тимус ва қораталоқни перитониал суюқликдаги макрофаглар миқдорини оширишига қараб биологик фаоллиги ўрганилди.

4-жадвалдаги маълумотларга кўра интакт сичқонларнинг перитониал суюқликдаги макрофаглари миқдори $90+11 \cdot 10^6/\text{мл}$ га тенглиги аниқланди ва 10



мг/кг ГКМАТ юборилганда макрофаглар миқдори 24 ва 48 соатда 322 ± 28 ва $317 \pm 25 \cdot 10^9$ /мл га ортди, стимуляция индекси (СИ) 3.6 ва 3.5 ни кўрсатди. 25 мг/кг ГКМАТ юборилганда перитонил суюқликдаги макрофаглар миқдори ўзгармади [9-10].

10 мг/кг госсипол юборилганда макрофаглар миқдори 24 соатдан кейин $182 \pm 15 \cdot 10^9$ /мл га, 48 соатдан кейин эса $150 \pm 12 \cdot 10^9$ /мл га ошди, СИ 2.0 ва 1.7 ни ташкил қилди. Госсипол дозаси 25 мг/кг да натижани оширди ва юқори натижа 10 мг/кг дозада 24 соатга, 25 мг/кг дозада 48 соатга тўғри келди.

4-жадвал

Перитониал суюқликда макрофаглар миқдорига госсипол, унинг ҳосилалари ва ГКМАТ билан супрамолекуляр комплекслари таъсири ($M \pm m$; $n=5$)

Препаратлар	Доза /тадқиқотлар вақти / макрофаглар миқдори							
	10 мг/кг			25 мг/кг				
	24 соат	48 соат		24 соат	48 соат			
	10^9 /мл	СИ	10^9 /мл	СИ	10^9 /мл	СИ		
Госсипол	182 ± 15	2,0	150 ± 14	1,7	118 ± 11	1,3	623 ± 55	6,9
ГКМАТ	322 ± 28	3,6	317 ± 26	3,5	$91 \pm 8,0$	1,0	107 ± 10	1,2
I	$265 \pm 22,8$	1,8	$545 \pm 46,9$	3,6	$272,5 \pm 22,4$	3,0	$672,5 \pm 57,2$	7,5
II	$350 \pm 31,6$	3,8	$250 \pm 20,8$	1,6	$250 \pm 20,6$	1,6	$327,5 \pm 26,9$	3,6
III	$525 \pm 46,2$	5,8	$415 \pm 35,6$	4,6	$140 \pm 9,6$	0,9	$240 \pm 19,2$	1,6
IV	$325 \pm 26,9$	3,6	$465 \pm 40,6$	5,2	$150 \pm 10,7$	1,0	$230 \pm 18,9$	2,5
V	$25 \pm 1,0$	0,3	$125 \pm 10,2$	1,4	$36 \pm 1,7$	0,4	$100 \pm 5,2$	1,1
VI	$260 \pm 1,9$	2,9	$380 \pm 30,2$	2,5	$200 \pm 14,9$	2,2	$350 \pm 23,5$	3,9

Назорат: $90 \pm 11 \cdot 10^9$ /мл

Макрофаглар миқдорининг перитониал суюқликда максимал ортиши (I) ди(2.4-динитрофенилгидразин)госсипол препарати 10 мг/кг ва 25 мг/кг дозада юборилганда 48 соатдан кейин кузатилди ва $545 \pm 46,9 \cdot 10^9$ /мл ва $672,5 \pm 57,2 \cdot 10^9$ /мл ни, СИ 3.6 ва 7.5ни ташкил қилди.

Перитониал суюқликдаги макрофагларнинг миқдори (II) ди(3-аминопропанол-1)госсипол препарати 10 мг/кг ва 25 мг/кг дозада юборилганда 24 соатдан кейин $350 \pm 31,6 \cdot 10^9$ /мл ва $327,5 \pm 26,9 \cdot 10^9$ /мл гача максимал ортди. Макрофагларнинг СИ 3.8 ва 3.6ни кўрсатди.

(III) ди(2.4-динитрофенилгидразин)госсипол+ГКМАТ супрамолекуляр комплекси 10 мг/кг дозада юборилганда макрофаглар миқдори 24 ва 48 соатдан кейин $525 \pm 46,2 \cdot 10^9$ /мл ва $415 \pm 35,6 \cdot 10^9$ /мл ни, СИ 5.8 ва 4.6ни кўрсатди. Дозани 25 мг/кг гача ошириш самара сусайишига олиб келди.

(IV) ди(3-аминопропанол-1)госсипол+ГКМАТ супрамолекуляр комплекси 10 мг/кг ва 25 мг/кг дозада 48 соатдан кейин макрофагларнинг миқдори $465 \pm 40,6 \cdot 10^9$ /мл ва $230 \pm 18,9 \cdot 10^9$ /мл ни, СИ 5.2 ва 2.5 ни ташкил қилган.

(V)ди(2.4-динитрофенилгидразин)госсипол+CuCl₂·2H₂O 10 мг/кг дозада юборилганда макрофагларнинг миқдорини максимал ортиши 24 соатдан кейин



кузатилган, 25 мг/кг дозада 48 соатдан кейин $260+1,9*10^9$ /мл ва $350+23,5*10^9$ /млни ташкил қилган. СИ 2,9 ва 3,9ни ташкил қилган.

(VI) ди(3-аминопропанол-1)госсипол+Cu(CH₃COO)₂*H₂O 10 ва 25 мг/кг дозада макрофагларнинг миқдори 24 соатдан кейин $25+1,0*10^8$ /мл ва $36+1,7*10^8$ /мл-гача камайди, СИ 0,3 ва 0,4 ни ташкил қилди, металлокомплексларга таълуқли иммунотроп кўрсаткичлар аввал 24 мобайнида иммунитет фаоллиги кескин буғилиши ва сўнгра 48 соат давомида иммунитет фаоллиги тикланиб юқори кўрсаткичлар намоён қилиши кузатилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

- Биктимиров Л., Зияев Х.Л., Ходжаниязов Б., Зиямов Б., Барам Н.И., Исмаилов А.И. Комплексы производных госсипола с N-поливинилпир-ролидоном // Химия природн. соедин. 1996.-№2.-с.198-201.
- Хаитбаев А.Х., Тиябаев З., Ачилова Г.Ш., Хаитбаев Х.Х., Ауелбеков С.А. Синтез и биологическая активность некоторых производных госсипола // Химия природн. соедин. 1995.-№1.-с.56-58.
- А.Г.Подкопный, Л.А.Балтина, Э.Э.Шульц, Глицирризиновая кислота (обзорная статья). Биоорганическая химия.1997.- Т.23.№9.-с.691-709.
4. K.Ariga, T Kunitake. "Supramolecular Chemistry – Fundamentals and Applications", "Springer" May 2006. -№4.- P.69-70.
5. Мухамеджанова Е.Н., Далимов Д.Н., Тиябаев З., Шнейвайс В., Камаев Ф.Г., Биктимиров Л., Исмаилов А.И. Синтез, строение бис-диэтиланилинимингоссиполов, их антиокислительная и антихолин-эстеразная активность // Химия природн. соедин. 1991.-с.184.
- Руководство по экспериментальному (доклиническому) изучению новых фармакологических веществ, Методы фармакологического доклинического исследования /под ред. Р.У. Хабриева, М., 2005.-с.699-709.
7. Hakberdiev, S. M., Talipov, S. A., Dalimov, D. N., & Ibragimov, B. T. (2013). 2, 2'-Bis {8-[(benzylamino) methylidene]-1, 6-dihydroxy-5-isopropyl-3-methylnaphthalen-7 (8H)-one}. *Acta Crystallographica Section E: Structure Reports Online*, 69(11), o1626-o1627.
8. Хакбердиев Ш. М., Тошов Х. С. Моделирование реакции конденсации госсипола с о-толуидином //ББК 74.58 G 54. – С. 257.
9. Xhamza, Toshov, Khakberdiev Shukhrat, and Khaitbaev Alisher. "X-ray structural analysis of gossypol derivatives." *Journal of Critical Reviews* 7.11 (2020): 460-463.
10. Хакбердиев, Ш. М. (2020). Бензиаминнинг госсиполли ҳосиласи синтези, тузилиши ва мис, никель, собальт тузлари билан металлокомплексларини олиш. *Science and Education*, 1(8), 16-21.